


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Rizaev Jamol Jumamuratovich

**5230100-"Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar moddiy-
texnika ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari
("Urganch sharob" OAJ misolida)"**

Ilmiy rahbar:

A handwritten signature in black ink, appearing to be "D. Matyaqubova".

o'qit. Matyaqubova D

Urganch 2014 yil

**Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar moddiy-texnika
ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari
("Urganch sharob" OAJ misolida)**

Mundarija:

Kirish.....	2
1-bob. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	5
1.1.Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishning maqsadi va vazifalari.....	5
1.2.Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalar tahlili ko`rsatkichlari.....	17
1.3. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalarni tahlil qilish usullari.....	28
2-bob. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari.....	34
2.1. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalarning texnik holati tahlili.....	34
2.2. Korxonalarning moddiy-texnika darajasini oshirish imkoniyatlari.....	41
2.3 Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari.....	53
Xulosa va takliflar.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	61

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo`jalik yurituvchi subyektlarida asosiy vositalarni tahlil qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Asosiy vositalarni texnik modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bog`liq. Lekin, o`z navbatida, korxonalarni asosiy vositalari ham iqtisodiyotning rivojlanishiga bevosita o`z ta'sirini ko`rsatadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Bugungi kunda ko`plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o`rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so`zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozoriga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o`zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko`rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirish mumkin"⁶ Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko`rsatish sohasi va kasanachilikni rivojlantirish nechog`li katta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o`shish sur'atlarini ta'minlash, jalb etilayotgan investisiyalarni ko`paytirish hisobidan tarkibiy o`zgarishlarni qat'iy davom ettirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash — biz uchun bosh vazifa bo`lib qoladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "O`tgan yili faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil

⁶ Islom Karimov «2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi». Xalq so`zi. 2012yil 20-yanvar.

etishni tezlashtirish borasida faol investisiya siyosati yuritishga alohida e'ibor qaratildi"⁷

Respublikamizda korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim ilmiy va amaliy ishlar olib borilgan bo'lsada, ammo ayrim tarmoqlarga oid aniq uslubiy ishlar olib borilmagan. Bu esa hozirgi davrda barcha tarmoqlardagi korxonalarining asosiy vositalari bo'yicha tahlil qilish ishlarini davr talabi asosida tashkil qilish vazifasini belgilab beradi. Ushbu vazifalarni ilmiy jihatdan hal etish masalasi bitiruv malakaviy ishining mavzusi va tadqiqot yo'nalishini belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalarda moddiy-texnikalarning moliyaviy hisobi va iqtisodiy tahlilni takomillashtirish masalalari horijiy va MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlari D.J.Foster, A.D.Sheremet va boshqalar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Bu borada mamlakatimiz olimlaridan A.V.Vaxobov, A.A.Karimov, M.Q.Pardaev, N.YU.Juraev, A.T.Ibragimov, M.M.Tulaxujaeva, E.F.Gadoev, B.J.Xakimov, M.YU.Raximovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Olimlarning olib borgan tadqiqotlari tarmoq korxonalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyata ega bo'lsada, lekin iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida hal etilishi zarur bo'lgan masalalar yuzaga chiqadi va chiqmoqda. Bu esa, o'z navbatida korxonalarda moddiy-texnika ta'minotini tahlil qilish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilishini taqozo etdi.

Bitiruv malakaviy ishining rejalari bilan bog'liqligi. Bitiruv malakaviy ishi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Tadqiqot maqsadi ilmiy izlanishlar natijasida korxonalarni moddiy-texnik ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish masalasiga oid muammolarini aniqlash va ularni davr talablari asosida hal qilishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish va tavsiyalar berishdan iborat.

⁷ Islom Karimov «2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi». Xalq so'zi. 2012yil 20-yanvar.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishning maqsadi va vazifalari belgilab bu borada takliflar bildirish;
- korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalar tahlili ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha takliflar berish;
- korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalarni tahlil qilish usullarini aniqlashtirish;
- korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalarning texnik holati va harakat ko'rsatkichlarining tahlilini izohlash;
- korxonalarining moddiy-texnika darajasini oshirish imkoniyatlarini yoritib berish;
- korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llarini aniqlashga oid tavsiyalar bildirish.

Bitiruv malakaviy ishining obykti va predmeti. “Urganch sharob” OAJ misolida iqtisodiy faoliyati tadqiqot obykti sifatida tanlab olingan. Moddiy –texnika ta'minoti jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Bitiruv malakaviy ishni ishlash jarayonida turli ilmiy usullari, jumladan, statistik guruhlash, tasniflash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, statistik jadvallar va grafiklar, iqtisodiy-statistik tahlil, usullardan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining matni 66 bet (12152 so'z)dan iborat bo'lib 5 ta rasm, 5 ta jadval keltirilgan.

1-bob. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari

1.1. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishning maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda asosiy vositalarning o'rnini nihoyatda kattadir. Asosiy vositalar xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish jarayonida juda katta rol o'ynaydi, chunki ular barcha xo'jalik yurituvchi subyekt tayanadigan va xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezonini bo'lgan ishlab-chiqarish texnika bazasini tashkil etadi. "Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSga asosan, asosiy vositalar uzoq davom etadigan vaqt mobaynida (bir yildan ortiq vaqt davomida) ishlab chiqarish sohasida ham amal qiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Tahlilda asosiy vositalar ma'lum guruhlariga bo'linib hisobga olinadi. Chunki asosiy vositalarni tahlilini to'g'ri tashkil qilishning muhim sharti bo'lib, ularni ilmiy jihatdan turkumlash va baholash hisoblanadi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab ishlab chiqarishning asosiy vositalarga va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan obyektlarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va unga xizmat qiladigan mehnat vositalari ishlab chiqarishning asosiy vositalari deb ataladi. Ularning ishlab chiqarish jarayonida qatnashishdagi roli har xil, ba'zilar masalan, mashinalar, uskunalar, asbob-uskunalar ishlab chiqarishda mehnat qurollari sifatida qatnashadi, ba'zilar esa ishlab chiqarish jarayonining to'xtovsiz ishlab turishini ta'minlaydi, masalan, inshootlar, yana boshqalari esa ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sharoit yaratib beradi. Masalan, ishlab chiqarish binolari, yo'llar va boshqalar. Masalan, ishlab chiqarish binolari, yo'llar va boshqalar.

Ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qatnashmaydigan obyektlarga uy-joy-kommunal xo'jaligi vositalari, sog'liqni saqlash muassasalarining asosiy vositalari (kasalxona, ambulatoriya, poliklinika), madaniyat va maorif muassasalariga

qarashli obyektlar (zavod klublari, teatrlar, kutubxona, bolalar muassasalari) va boshqalar kiradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining turkumlanishiga muvofiq asosiy vositalar quyidagi iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlariga bo`linadi: sanoat, qishloq xo`jaligi, transport, aloqa, qurilish, savdo va boshqalar. Masalan, sanoat xo`jalik yurituvchi subyektlarida "Sanoat" tarmog`iga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog`liq bo`lgan hamda xo`jalik yurituvchi subyektning transport moddiy-texnika ta`minoti, ombor xo`jaligi va boshqa bo`limlarining asosiy vositalari kiradi.

Sanoat xo`jalik yurituvchi subyektlari balansida aks ettiriladigan yordamchi qishloq xo`jalik bo`limiga qarashli obyektlar "qishloq xo`jalik tarmog`i", uy-joy-kommunal xo`jaligiga qarashli obyektlar "Aholiga maishiy xizmat ko`rsatish" va "Uy-joy-kommunal xo`jaligi" tarmog`iga kiradi. Demak, sanoat korxonalaridan tashqari, boshqa xalq xo`jaligi tarmoqlariga qarashli obyektlar ham foydalanishda bo`lishi mumkin. SHu nuqtai nazardan sanoat korxonalarining asosiy vositalarini sanoat ishlab chiqarishi va boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish fondlariga asosiy vositalari o`z foydalanish nuqtai nazaridan quyidagi guruhlariga bo`linadi:

1. Yer;
2. Bino;
3. Inshoot;
4. O`tkazuvchi qurilmalar;
5. Mashina va uskunalar;
6. Hisoblash texnikasi va kompyuterlar;
7. Transport vositalari;
8. Ishlab chiqarish inventarlari va jihozlari;
9. Xo`jalik inventarlari;
10. Ishchi va mahsuldor mollar;
11. Ko`p yillik daraxtlar;
12. Yerni yaxshilash bo`yicha kapital xarajatlar (inshootlarsiz);


13. Boshqa asosiy vositalar;

Foydalanilishi nuqtai nazaridan asosiy vositalar harakatdagi, zaxiradagi va foydalanilmaydigan obyektlarga bo`linadi. U yoki bu xo`jalik yurituvchi subyektga qarashliligi nuqtai-nazaridan asosiy vositalar korxonaning o`ziga qarashli va ijaraga olingan obyektlarga bo`linadi. Xo`jalik yurituvchi subyekt va firmalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni soddalashtirish maqsadida ular muayyan tasnif ko`rsatkichlari orqali guruhlariga bo`linadi. Asosiy vositalarni guruhlariga bo`lishning tasnif belgilari quyidagilardir:

- bajaradigan vazifasiga ko`ra;
- obyektlarda foydalanish darajasiga ko`ra;
- natural-moddiy tarkibiga ko`ra.

1.1.1-rasm

Ob`ektlardan foydalanish darajasiga ko`ra asosiy vositalarning turkumlanishi³



Asosiy vositalar bajaradigan vazifasiga ko`ra ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalariga bo`linadi. Ishlab chiqarish asosiy vositalari bevosita moddiy ne`matlarni yaratishda ishtirok etadigan vositalaridir. Noishlab chiqarish asosiy vositalari guruhiga uy-joy hamda kommunal-xo`jalik, maishiy xizmat, sog`liqni saqlash, ta`lim va boshqalarning asosiy vositalari kiritiladi.

³ A.Vahobov, A.Ibrohimov. Moliyaviy tahlil: Darslik.-T.: «Sharq» 2002y.

Ishlab chiqarish va xo`jalik faoliyatida asosiy vositalar obyektlardan foydalanish darajasiga ko`ra quyidagi guruhlariga bo`linadi:

Asosiy vositalarning bunday guruhlanishi ulardan foydalanish samaradorligini baholash, eskirgan vositalarni almashtirish, keraksiz asosiy vositalarni boshqa xo`jalik yurituvchi subyektga berish yoki sotish to`g`risida qaror qabul qilish, shuningdek, ularning eskirishini to`g`ri hisob-kitob qilish uchun zarur.

Yer amaldagi qonunchilikka binoan xo`alik yurituvchi subyektga mulk tarzida berilgan yer maydonidir. O`zbekiston Respublikasi yer kodeksining 17-moddasiga binoan, “yuridik shaxslar yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo`lishlari mumkin”. yerning qiymatiga uni xarid qilishda ko`chmas mulk agentlariga to`lanadigan komission to`lovlar, advokatlar xizmati uchun haq, xarid qilishdagi soliq to`lovlari, drenaj qiymati, yerni tozalash va boshqa xarajatlar qo`shiladi. Asosiy vositalar natural-moddiy tarkibiga ko`ra quyidagi guruhlariga bo`linadi.


Yerni obodonlashtirish bo`yicha kapital xarajatlar tarkibiga yerning unumdorligi oshirish, avtomobil va boshqa transport turlariga to`xtash joylarini barpo etish hamda shunga o`xshash boshqa xarajatlar kiradi.

Obyektlardan foydalanish darajasiga ko`ra asosiy vositalarning turkumlanishi foydalanilayotgan asosiy vositalar zahirada turgan asosiy vositalar ishlamayotgan asosiy vositalar binolarga ishlab chiqarish korpuslari, sexlar, ustaxonalar, boshqarma binosi, omborxonalar, turar-joy binolari va boshqa ishlab chiqarish, ma`muriy-xo`jalik va ijtimoiy-maishiy maqsadlardagi obyektlar, shunindek, ulardan to`g`ri foydalanish zarur bo`lgan jami kommunikasiya vositalari (isitish, yoritish, shamollatish, suv-gaz ta`minoti tizimi, ichki telefon va signalizatsiya vositalari, lift xo`jaligi) kiradi.

Inshootlarga mehnat jarayoni va uning natijalarini o`zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonlarining texnikaviy yoki umumiy vazifalarini bajarishga xizmat

qiladigan obyektlar (neft va gaz quduqlari, shaxta yo'llari, avtomobil yo'llari, ko'priklar, estakadalar, suv omborlari va boshqalar) kiradi.

1.1.2-rasm



Uzatuvchi moslamalarga mashina-dvigateldan ish mashinalariga elektr, issiqlik, mexanik energiyani uzatishga, shuningdek, suyuq va gazsimon moddalarni bir obyektidan boshqa obyektga yetkazib berishga xizmat qiladigan qurilmalar (elektr uzatish yo'llari, quvur yo'llari, issiqlik va gaz tarmog'i hamda boshqalar) kiradi.

Mashina va jihozlar asosiy vositalarning eng asosiy turi hisoblanadi va o'z navbatida quyidagi guruhlardan tarkib topadi:

⁴ A.Vahobov, A.Ibrohimov. Moliyaviy tahlil: Darslik.-T.: «Sharq» 2002y.

- kuch mashina va jihozlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaradigan yoki uni mexanik harakat energiyasiga aylantirib boradigan generator-mashinalar, dvigatel mashinalar (qozonxonalar, bug` dvigatellari, turbinalar, kuch transformatorlari va boshqalar)dir;
- ish mashinalari va jihozlari mehnat predmetlariga mexanik, termik, kimyoviy yoki boshqa yo`sinda texnologik ishlov berishga, ularni ishlab chiqarish jarayonida qo`zg`atish, qazib olish, eritish, tayyorlashga xizmat qiladigan qurilmalar (stanoklar, apparatlar, agregatlar)dir;
- o`lchovga rostlash asboblari hamda qurilmalari va laboratoriya jihozlari foydalaniladigan texnika ishida turli parametr (ko`rsatkich)larni o`lchash, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, xom ashyo, TMZ lar va tayyor mahsulotlar sifatini tekshirish, namlik darajasi, shovqin ta`siri va boshqalarni o`lchashda ishlatiladi. Ularga monometrlar, tarozilar, mikroskoplar, dispetcherlik nazorati va boshqalar kiradi;
- hisoblash texnikasi ma`lumotlarni elektron hisoblash mashinalarida qayta ishlaydigan vositalardir. Ularga kompyuterlar, printerlar va boshqa kompyuter vositalari kiradi;
- boshqa mashina va jihozlarga yuqorida sanab o`tilmagan mashina va jihozlar (o`t o`chirish va boshqa maxsus mashinalar) kiradi.

Transport vositalari kishilar hamda yuk va turli maqsadlardagi narsalarni tashishga mo`ljallangan harakat vositalaridir.


Asbob va uskunalar qo`l mehnati jarayonida ishlatiladigan yoki ish qismlarini kuchaytirish, oshirish uchun mashinaga biriktiriladigan vositalar (elektro-drellar, vibratorlar)dir. Ishlab chiqarish inventarlari ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirishda ishlatiladi. Ularning tarkibiga bak, konteyner, inventar, idishlari kiradi.

Ish hayvonlari va mahsuldor chorva har bir yetilgan mol (ot, ho`kiz, sigir)lar bo`lib, alohida inventar obykti sifatida hisobda aks ettiriladi.

Ko`p yillik daraxtlar alohida xiyobon, park, bog`dagi miqdori va yoshidan qat`iy nazar ekilgan daraxtlar guruhidir.

Boshqa asosiy vositalarga kutubxona vositalari, ijaraga olingan asosiy vositalar, konservasiyadagi asosiy vositalar va boshqalar kiradi.

1.1.3-rasm



Dastlabki qiymat – aktivni xarid qilishda haqiqatda to`langan pul mablag`lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir. Xarid qilishning haqiqiy qiymati asosiy vositani xarid qilish va uni ishlatish uchun tayyor holga keltirishda qilingan barcha xarajatlarni, ya`ni, dastlabki qiymat sotish qiymati asosiy vositalarning baholanishi qayta tiklash qiymati qoldiq qiymati tugatish qiymati xarid narxi, yuridik yig`imlar va boshqa xarajatlarni o`z ichiga oladi.

Tashkilot tekinga olgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati ekspert yo`li bilan bozor narxida baholangan qiymat bo`yicha tan olinadi. Tekinga olingan asosiy

⁵ Axmadjonov X.I., Raximov M.YU. Moliyaviy tahlil. T.; TMI bosmaxonasi. 2004 y.

vositalarni kirib kelgan sanada amal qilgan narx asosida joriy bozor qiymati shakllantiriladi. Amaldagi narx to'g'risidagi ma'lumotlar ham hujjatlar va ekspert yo'li bilan tasdiqlanishi kerak.

Sotish qiymati asosiy vositalarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayrboshlash mumkin bo'lgan summadir.

Asosiy vositalarni pulga xarid qilinsa, uning qiymati kontraktida ikkilamchi bozorda faol ishlayotgan shu singari aktivga aniqlangan bozor narxi bo'yicha ko'rsatilishi mumkin.

Asosiy vositalarni xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi tomonidan yaratilgan va uni yaratish chiqimlarini aniq belgilash mumkin bo'lgan hollarda asosiy vositalar haqiqiy tannarx bo'yicha aks ettiriladi.

Ba'zi vaqtlarda asosiy vositalarni qayta baholashga ehtiyoj tug'iladi. Asosiy vositalarni qayta baholaganda asosiy vositalarning butun zanjiri qayta baholanishi kerak. Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning balans qiymati ko'paygan holda ushbu ko'payish avvalgi bahodan oshadigan summada 8510-“Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” shtatining kreditida aks ettirilishi lozim.

Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning balans qiymati kamaygan bo'lsa, bu kamayish avvalgi bahodan oshadigan summada xarajat sifatida tan olinadi.

Tahlilning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi.⁶

Bu esa, albatta, ko'p jihatdan korxonalar asosiy vositalaridan samarali foydalanishni uni hisobini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitida asosiy vositalar harakatini tahlil qilishning ahamiyati mulkchilikning barcha shakllarida ish yuritayotgan korxonalar uchun beqiyosdir, zero asosiy vositalar harakati, korxonaning bu turdagi mablag'lar bilan ta'minlanganligi to'g'risida to'la-to'kis ma'lumotlarga ega bo'lmasdan, ishlab chiqarishni ilmiy jihatdan va samarali boshqarish aslo mumkin emas.

⁶ A.Vahobov, A.Ibrohimov. Moliyaviy tahlil: Darslik.-T.: «Sharq» 2002y., 8-b.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni boshqarishda moliyaviy va boshqaruv tahlilining roli keskin oshmoqda, chunki boshqaruv tizimida oldingi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanmoqda. Sobiq ittifoq davrida tahlil asosan reja ko'rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan edi. Endilikda esa har bir xo'jalik subyekti, mulk shaklidan qat'iy nazar o'z faoliyatini yuqoridan berilgan buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki mustaqil ravishda o'zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy tahlilning rolini yanada oshiradi.

Iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora- tadbirlari ishlab chiqiladi. Xo'jalik subyekti aniq baholangan aktivdan iqtisodiy foyda olishiga ishonchi bo'lgan taqdirdagina asosiy vositalarni aktiv sifatida tan oladi. Buxgalteriya hisobining milliy standartiga ko'ra, asosiy vositalar sotib olingan, o'rnatilgan, amaliyotda sinab ko'rilgan va ishga tushirish ishlari bajarilgandan so'ng AV-1 shaklidagi ishga tushirish dalolatnomasi tuzilgan hamda uskunalarni ishlash holatiga kelishi uchun mas'ul komissiya a'zolari tomonidan imzolangan, keyingina xo'jalik subyektining balansiga uning aktivi sifatida hisobga olinishi mumkin. Asosiy vositalar hisobi AV-7 va AV-6 hisob kartochkalaridagi inventar raqamlari bo'yicha yuritiladi. Asosiy vositalar AV-1 shakli bo'yicha kirim dalolatnomasi asosida kirim qilinadi. Ko'chirish AV-2 qaydnomasi bo'yicha rasmiylashtiriladi, tugatish esa, AV-4 tugatish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi, umumlashtirilgan hisob blankalari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan va tasdiqlangan.

Asosiy vositalar tahlilida korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasiga, ularning texnik holati va harakat ko'rsatkichlariga, samaradorlik ko'rsatkichlariga, dinamikasi va holatiga baho beriladi. Asosiy vositalarning tarkibi bo'yicha, turi bo'yicha o'zgarishlariga baho beriladi. Tahlil etishda asosiy vositalarning holat va harakat ko'rsatkichlariga muhim e'tibor qaratiladi. Bu orqali

bevosita asosiy vositalarning eskirish darajasi, yaroqlilik darajasi, kirimi va chiqimi ko`rsatkichlariga baho beriladi.

Asosiy vositalarning unumini o`rganish asosida mahsulot ishlab chiqarishda ularning samaradorlik ko`rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalarning samaradorlik ko`rsatkichlarini omilli tahlil asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o`rganiladi va tahlil yakunida korxonada asosiy fondlardan foydalanishga va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan muhim iqtisodiy yo`nalishlar belgilanadi. Korxonaning asosiy vositalari, ularning holati, harakati va samarasiga iqtisodiy tashxis beriladi.

Har bir fanning vazifasi iqtisodiy shart sharoitga qarab belgilanib boriladi, lekin u oldiga qo`yilgan vazifalarni to`liq va keng hal etish uchun qator uslublarni qo`llaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini tahlil etishda moliyaviy va boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

- O`rganilayotgan obyektga (hodisaga) to`g`ri va xolisona baho berish.
- Korxonaning biznes rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta`minlash.
- Tuzilgan biznes rejalarning to`g`ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish.
- Har bir yo`nalishga ta`sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta`sirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish.
- Biznes rejaning bajarilishi natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligini ta`minlanishi, uning iqtisodiy qudratini yaxshilanishi, har bir xo`jalik subyektining raqobatbardoshligini oshirilishi uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o`rganish.
- Moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan samarali va oqilona foydalanganlikka baho berish.
- Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to`lovga qobiliyatligiga baho berish hamda bu natijaga tezkor chora-tadbirlarni qo`llash yo`llarini ishlab chiqish.

- Xo`jalik hisobi tamoyillariga, tijorat hisob-kitoblariga amal qilishlikni muntazam tekshirib turish.
- Korxonalarda mavjud bo`lgan samaradorlikni oshirish yo`lida ularning imkoniyatlarini aniqlash.
- Korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko`rsata bilish va tashqi investorlarni korxonaga faoliyatini yaxshilashga jalb qilish.
- Korxonani boshqarishning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish, ilg`or g`oya va tajribalarni o`rganilayotgan hodisaga qo`llash yo`l-yo`riqlarini ko`rsatib berish, tegishli axborotlar manbaini yetkazib berish.
- Eng to`g`ri va oqilona, kelgusida ish yuritish va korxonalarni boshqarish bo`yicha xulosalar berish.
- Korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko`rsatkichlar asosini aniqlash.
- Rejaning bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalariga bog`liq bo`lgan va bog`liq bo`lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash.
- Korxonalarining xo`jalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin bo`lgan natijalarni oldindan aniqlash.

Korxonaning texnik modernizatsiyalash sharoitida xo`jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini o`rganishda moliyaviy tahlilning eng asosiy vazifalari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo`jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan yetarli darajada yangi asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o`zgarishlariga baho berish;
- asosiy vositalarning texnik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning harakat ko`rsatkichlarini o`rganish va ularga baho berish;
- asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajalariga baho berish;
- xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajalariga baho berish;

- asosiy vositalar samaradorligini oshirish bo`yicha mavjud imkoniyatlarni ko`rsatib berish va boshqalar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining asosiy vositalarini tahlil etishda asosiy axborot manbalari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

A) Korxonaning biznes reja ma'lumotlari.

B) "Buxgalteriya balansi" (1-shakl).

V) "Asosiy vositalar harakati to`g`risidagi" hisobot (3-shakl).

G) Buxgalteriya hisobining asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyot ma'lumotlari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har bir vositani ma'lum bir xususiyatlari bo`yicha tasniflash va tarkibiy joylashtirib chiqish zarur.

Bu esa ularni alohida tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq bo`ladi.

1.2. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalar tahlili ko'rsatkichlari

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi quyidagilardan iborat:

- Asosiy vosita holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- Asosiy vosita bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- Asosiy vosita samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Asosiy vosita holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- Asosiy vositaning umumiy mablag'lardagi hissasi.
- Asosiy vositalar aktiv qismining umumiy asosiy vositalardagi ulushi.
- Asosiy vositaning eskirish koeffisienti.
- Asosiy vositaning yangilanish koeffisienti.
- Asosiy vositaning yaroqlilik koeffisienti.
- Asosiy vositaning hisobdan chiqarish koeffisienti.

Asosiy vosita bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilar:

- Fond bilan qurollanganlik darajasi.
- Natijaning sig'imi.
- O'z mablag'larining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi.

Asosiy vositaning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilar:

- Asosiy vositalar rentabelligi.
- Asosiy vositaning natijaviyligi.
- Asosiy vositaning daromadliligi.

Asosiy vositalar holatini tahlil qilishda ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash lozim. Uni tahlil qilish uchun biznes reja hisob va hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi. Unda bazis rejadagi ma'lumotlari haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslanib, o'zgarishlarning yaxshilanganligi yoki yomonlashish sabablari aniqlanadi, ko'rsatkichlarni yaxshilanishi uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlariga ularning yangilanishi va chiqib ketish koeffisientlari kiritiladi. Asosiy vositalarning yangilanish koeffisienti joriy davrda yangidan kiritilgan asosiy vositalar qiymatini asosiy vositalarning yil oxiriga

bo`lgan qiymatiga bo`lish orqali topiladi. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffisienti joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymatini ularning yil boshiga bo`lgan qiymatiga bo`lish asosida aniqlanadi. Ya'ni ushbu koeffisientlarni aniqlashni quyidagi formulalar orqali ham ifodalashimiz mumkin.

Eskirish koeffisienti eskirish summasining asosiy vositalar boshlang`ich qiymati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kesk = Ave/Avbq$$

Bunda:

Ave - asosiy vositalar eskirish summasi;

Avbq - asosiy vositalarning boshlang`ich qiymati.

Asosiy vositalar yaroqsizlik koeffisienti qoldiq qiymatining boshlang`ich qiymatga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kyar = Avq.q/Avbq$$

Bunda:

Avq.q — asosiy vositalarning qoldiq qiymati.

Yangilanish koeffisienti yil mobaynida yangi kelgan asosiy vositalarning yil oxiridagi ular qoldig`iga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kyang = Avya.k/Avdo.bq$$

Bunda:

Avya.k - yangi kelgan asosiy vositalar summasi;

Avdo.bq - asosiy vositalarning davr oxiridagi boshlang`ich qiymati.

Hisobdan chiqarish koeffisienti yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning yil boshidagi qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniq:

$$Kyar = Avx.ch/Avdb.q, \text{ lanadi:}$$

Bunda:

Avx.ch - hisobot davrida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar;

Avdb.q - asosiy vositalarning davr boshidagi boshlang`ich qiymati.

Mazkur koefitsientlar barcha asosiy vositalar hamda ularning alohida turlari va guruhlari bo`yicha hisoblanadi. Qator yillar mobaynidagi o`zgarishi ko`rib chiqiladi va tegishli xulosalarga kelinadi.

Asosiy vositalarning yangilanish koefitsienti esa quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\text{Asosiy vositalarning yangilanish koefitsienti} = \frac{\text{Ishlab chiqarishga yangidan qabul qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlangich qiymati}}$$

Asosiy vositalarning chiqib ketish koefitsienti esa quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\text{Asosiy vositalarning chiqib ketish koefitsienti} = \frac{\text{Joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil boshiga bo`lgan qiymati}}$$

Bu tarkiblashni asosiy vositalarning jami qatori va har bita tarkibi bo`yicha berib o`tish mumkin. Tahlil jarayonlarida asosiy vositalarning yangilanish va ishlab chiqarishdan chiqarish sabablariga ham e`tibor beriladi. Bunda korxonaning asosiy vositalarini yangilash manbalari bo`lib:

- kapital quyilmalar va investisiyalar;
- xususiy kapitalning o`sishi;
- uzoq muddatli kreditlar va qarzarlar;
- maqsadli moliyalash va subsidiyalar;
- tekinga olingan asosiy vositalar;
- grantlar va boshqa manbalar hisoblanadi.

Asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan chiqarish sabablariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- asosiy vositalarning ma`naviy eskirishi;

- asosiy vositalarning jismoniy eskirishi va foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelishi;
- asosiy vositalarning ortiqcha ekanligi;
- asosiy vositalarni sotish;
- o`g`irliklar, yo`qotishlar va boshqa chiqimlar.

Hozirgi kunda korxonalaridagi asosiy vositalarning texnik holati va harakat ko`rsatkichlarini tahlil qilib borish bilan bir qatorda, korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi darajasini hamda xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanganligi darajasini ham tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik yoki qurollanganlik darajasi deb ishlab chiqarishning me'yor darajasida mehnat vositalari bilan ta'minlanganligiga aytiladi.

Avvalo, korxonaning mehnat vositalari bilan ta'minlanganligida quyidagi jihatlarini farqlash lozim:

- o`ziga tegishli bo`lgan mehnat vositalari bilan ta'minlanganligi;
- ijaraga olingan mehnat vositalari hisobiga ta'minlanganligi.

Korxonada har ikkala holatda ham asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikning me'yor ko`rsatkichlariga ega bo`lishi mumkin. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik tahlilida korxonada asosiy vositalarning rejaga va o`tgan yillarga nisbatan mutloq va nisbiy o`zgarishlariga baho beriladi. Asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko`rsatkichlari sifatida bir ishchiga to`g`ri keladigan mehnat vositalari, bir ish o`rniga to`g`ri keladigan asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi aniqlanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining asosiy vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanganligini o`rganish bilan bir qatorda ularning samaradorlik ko`rsatkichlarini o`rganish asosiy o`rinda turadi. Asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlangan bo`lsa, lekin ulardan samarali foydalanmasak, u holda korxonaning samaradorligi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va uning holatiga baho berishga iqtisodiy tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati uning to`la ish bilan bandlik holatiga aytiladi. Bu holat nafaqat mahsulot ishlab chiqarish

darajasiga, balki uning harajatlar tarkibiga, moliyaviy natijaviyligiga ham ta'sir etuvchi birlik sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish quvvatlari va uning foydalanish darajalariga baho berish asosida korxonaning joriy davrdagi iqtisodiy potentsiali hamda uni maqsadli boshqaruvi belgilanadi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning tahlilining quyidagi qatorlarini xarakterlash mumkin;

- korxonada ishlab chiqarish quvvatlarining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimi;
- texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni qiyosiy tahlili;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxonada xarajatlariga ta'sirining tahlili;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxonada ishlab chiqarish samaradorligiga va faoliyat natijaviyligiga ta'sirining tahlili.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda korxonada tomonidan oshkor etiladigan 2-b forma «Korxonaning ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi» ga muhim e'tibor beriladi.

Tahlilda asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning ta'sir etuvchi omillari ikkita tarkib bo'yicha o'rganiladi.

1. Asosiy vositalarning samaradorligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili;
2. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar katoriga quyidagilar kiritiladi.

Fond qaytimi (sig'imi) va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib:

- Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishi;
- Asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.

Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- Asosiy fondlarning o`rtacha yillik qiymatining o`zgarishi;
- Fond qaytimi (sig`imi)ning o`zgarishi.

Ishlab chiqarish jihozlaridan vaqt va quvvat bo`yicha foydalanish tahlilida korxonada asosiy fondlari va ularning tarkibida mashina va uskunalar, stanoklar ish vaqtidan foydalanishning darajasiga, quvvatlarning foydali ish koeffitsientlariga, foydalanishning real holatiga baho beriladi.

Mashina va uskunalarning ish vaqtidan samarali foydalanishda ularning jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari tarkibidagi salmog`iga va ularning ish samarasiga ahamiyat beriladi.

Mashina va uskunalarning jami ishlagan vaqti hamda mashina va uskunalarning ish vaqtidan olingan samaradorlik ko`rsatkichlarini aniqlash asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillar tahlil etiladi hamda uni o`stirishning ichki imkoniyatlari belgilanadi.

Fond qaytimini oshirish imkoniyatlarini umumlashtirish tahlil etish bosqichining yakuni hisoblanadi. Unda tahlil etish natijalaridan kelib chiqqan holda korxonada asosiy vositalarning samaradorligini oshirishning yo`nalishlari belgilanadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko`rsatkichlarini oshirishning quyidagi yo`nalishlarini korxonada uchun tavsiya sifatida keltirib o`tish mumkin.

Tashkiliy yo`nalishlar bo`yicha:

- asosiy vositalarning faqat korxonaga ish beradigan qisminigina olish;
- asosiy vositalarning ortiqcha qismini ushlab turmaslik;
- eskirgan asosiy vositalarni va manaviy talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish;
- asosiy vositalarni farqlash va tarkiblashni qayta o`zgartirish;
- asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning mos shakllarini belgilash va boshqalar.

Texnik yo`nalishlar bo`yicha:

- asosiy vositalarni ta`mirlash choralarini ko`rish, texnik qarov;
- eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;

- avtomatlashtirilgan tizimni yaratish;
- mexanizasiyalashni kuchaytirish va boshqalar.

Ekspluatasion yo`nalishlar bo`yicha:

- bir smenalik va ko`p smenalik;
- ishlab chiqarish hajmiga qarab asosiy vositalarni texnik holat va harakatini boshqarish;
- asosiy vositalar qarovi yuzasidan ma'sul shaxslarni ajratish;
- asosiy vositalar bo`yicha javobgarlik markazlarini belgilash va boshqalar.

Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko`rsatkichlar bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

- asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;
- asosiy vositalarning eskirish darajasi;
- asosiy vositalarning yangilanish darajasi.

Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi foiz ko`rinishida quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\text{Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi} = \frac{\text{Asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang`ich qiymati}} * 100$$

Asosiy vositalarning eskirish darajasi foiz ko`rinishida quyidagi tartibda aniklanadi:

$$\text{Asosiy vositalarning eskirish darajasi} = \frac{\text{Asosiy vositalarning eskirish qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang`ich qiymati}} * 100$$

Asosiy vositalarning yaroqlilik va eskirish koeffisientlari yig`indisi koeffisientda 1,0 ga, foizda 100 teng bo`ladi.

Asosiy vositalarning holat ko`rsatkichlariga qarab ularning texnik holatiga baho beriladi va ularni tartiblash bo`yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Asosiy vositalarning holatini o`rganishda korxonada amortizatsiya siyosatiga, asosiy vositalarning ma'naviy eskirganlik darajasiga, foydalanishdan olib quyilgan va konservatsiya qilingan asosiy vositalar holatiga muhim e'tibor qaratiladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlarini ularning har bir turi va jami bo'yicha o'rganiladi. Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 1-shakl «Buxgalteriya balansi» va 3-shakl «Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi» hisobot shakllaridan olinadi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning harakat ko'rsatkichlari bilan to'ldiriladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har bir tadbirkor, korxonada rahbari va investor korxonada moliyaviy holatini ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish usullarini egallagan bo'lishi va ular asosida maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishini bilish lozim. Albatta, asosiy vositalar tahlili juda katta ahamiyatga ega. Uni baholash, amortizatsiyalash, hisobga olish kabi muhim jihatlari bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashib bormoqda. Bularning hammasi uni tahlil qilish usullariga ham ayrim o'zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalar harakatini hisobga olishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

AV-1 shakl. Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi. Dalolatnoma har bir obyekt uchun yozilib, buxgalteriyaga beriladi va asosiy vositani hisobga olish inventar kartochkalariga yozish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

AV-2 shakl. Ta'mir qilingan, tiklangan va takomillashtirilgan obyektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi.

AV-3 shakl. Asosiy vositalarni tugatish to'g'risida dalolatnoma.

AV-4 shakl. Avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi

AV-6 shakl. Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi. Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va ushbu obyekt texnik hujjatlari asosida har bir obyektga inventar kartochkasi ochiladi.

AV-7 shakl. Asosiy vositalarni hisobga olish bo`yicha inventar kartochkalari ro`yxati.

AV-8 shakl. Asosiy vositalar harakatini hisobga olish kartochkasi. Turkum guruhlari bo`yicha asosiy vositalar harakatini hisobga olish uchun qo`llaniladi. Kartochka ma`lumotlari asosida asosiy vositalar harakati haqidagi hisobot to`lg`aziladi.

AV-9 shakl. Asosiy vositalar inventar ro`yxati.

Asosiy vositalar xo`jalik yurituvchi subyektga kelib tushganda rahbar tayinlagan komissiya har bir obyekt bo`yicha alohida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (yuk xat)ni rasmiylashtirishi lozim (AV-1 shakl).

Dalolatnomada obyekt tavsifi, turgan joyi, sotib olingan manbai, chiqarilgan yoki qurilgan yili, ishga tushirilgan sana, obyektning sinov natijalari, uning texnik shartlarga muvofiqligi va boshqalar ko`rsatilishi lozim.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish umumiy daloltnomasi bilan bir turdagi va narxi bir xil xo`jalik inventari, asboblari, stanoklar olinganligini rasmiylashtirish mumkin. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga pasportlar, ishlatish tartibi, yo`riqnomalar ilova qilinadi.

Hisobga qabul qilingan asosiy vositalar har bir obyektiga inventar raqami (soni) beriladi, masalan 001 dan 099 gacha inventar raqamlari binolarga, 100 dan 199 gacha inshootlarga, 100 dan 299 ga qadar bo`lgan raqamlar uzatish qurilmalariga beriladi va h.k. berilgan inventar raqami asosiy vositalar obyektiga metall jetonni qoqib qo`yish, bo`yoq bilan belgi qo`yish va boshqa usullarda belgilab qo`yiladi. Bu belgi obyekt foydalanishda bo`lgan jami davr uchun saqlanadi va buxgalteriya hisobining barcha boshlang`ich hujjatlari hamda registlarida ko`rsatiladi. Obyekt chiqim qilinganda uning inventar raqami yangi kirim qilingan asosiy vositalarga berilmaydi.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi ilova hujjatlar bilan birga xo`jalik yurituvchi subyekt buxgalteriyasiga topshiriladi. Buxgalteriya dalolatnoma asosida belgilangan namunadagi inventar varaqasi ochadi (AV-6 shakli).

Bu varaqada obyekt haqidagi barcha ma'lumotlar qayd etiladi (dastlabki yoki tiklanish qiymati, amortizasiya ajratmalari me'yor, kirim qilingan paytdagi eskirish darajasi). So'ngra inventar varaqalari asosiy vositalarning tasnif guruhlari bo'yicha maxsus ro'yxat tuziladi (AV-7 shakli).

Ro'yxatda qayd qilingan varaqalar asosiy vositalar kartotekasida tarmoq tasnif guruhlari, guruh ichida esa turgan joyi, foydalanish joyi va turlari bo'yicha guruhlangan tartibda saqlanadi. Harakatsiz asosiy vositalar obyektlari varaqalari alohida guruhlanadi. Asosiy vositalarning chiqimi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va bu haqida inventar varaqasiga qayd qilinadi, so'ngra varaqa kartotekadan olib qo'yiladi.

Qayta baholangan asosiy vositalar obyektlari tiklanish qiymati bo'yicha varaqaning tegishli bo'limida ko'rsatiladi. Asosiy vositalar ishlatiladigan joylarda (xo'jalik yurituvchi subyekt sexlari, uchastkalari, bo'limlari) hisob asosiy vositalarning inventar ro'yxati bo'yicha olib boriladi (AV-9 shakli). Bunda hamma moddiy javobgar shaxslar bilan belgilangan namunada va ikki nusxada moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuziladi. SHartnomaning bir nusxasi har bir moddiy javobgar shaxsning buxgalteriya (shaxsiy) delosi (hujjatlari majmui)da, ikkinchi nusxasi shu xodimlarning o'zida saqlanadi.

Hamma moddiy javobgar shaxslar asosiy vositalarni o'z javobgarligiga olganini inventarizasiya ro'yxatiga imzo qo'yib tasdiqlab beradi, asosiy vositalarning keyingi tushumlarida esa birlamchi hujjatlarga imzo qo'yadi. Asosiy vositalarning har qanday ko'chishi (boshqaga berish, tugatish va boshqalar) moddiy javobgar shaxslarning ishtirokida rasmiylashtiriladi.

Olingan, hisobdan chiqarilgan xo'jalik yurituvchi subyekt ichida joyi o'zgartirilgan (ko'chirilgan) asosiy vositalarning inventar varaqalari tegishli qaydlar o'tkazilganidan keyin oy oxirigacha joy-joyiga qo'ymay, alohida saqlanadi. CHunki har oyda shu varaqalar asosida asosiy vositalar amortizasiyasi (eskirish) hisob-kitoblari tuziladi, ularning har bir turi bo'yicha kirim, chiqim oborotlari jamlanadi va asosiy vositalar harakatini hisobga olish varaqasi to'ldiriladi.

Asosiy vositalar harakatini hisobga olish varaqasi (AV-8 shakli) joriy yil uchun yanvar oyi boshida ochiladi. Varaqada dastlab asosiy vositalarning borligi, turlari bo'yicha ma'lumot 1 yanvar holatiga ko'rsatiladi, so'ngra har oyda oy davomida oborotlar yozuvidan keyin keyingi oyning 1 kunidagi holat bo'yicha asosiy vositalarning mavjudligi qayd etiladi. Shu ma'lumotlar asosida asosiy vositalarning harakatining oborot ro'yxati (vedomost) tuziladi. Uning yakunlari asosiy daftardagi yakunlar bilan solishtirilib chiqiladi va shu asosda xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalari mavjudligi va ularning harakati to'g'risida hisobot tuziladi.

Asosiy vositalarning chiqib ketishi AV-1 va AV-3 shakllaridagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Bu shakllarda chiqim qilinadigan obyektlarning dastlabki qiymati va eskirish summasi qayd etiladi. Inventar varaqasi kartotekadan olinib, dalolatnomaga ilova qilinadi. Asosiy vositalarning turgan o'rnini bo'yicha inventar ro'yxatida tegishli qaydlar qilinadi.

1.3. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalarni tahlil qilish usullari

Korxonada asosiy vositalar tahlilini olib borishda birinchi navbatda asosiy vositalar ro'yxatini keyin ularning boshlang'ich va qoldiq qiymatlarini aniqlab, tahlil qilish usulini aniqlab so'ngra tahlil olib boriladi. Ayniqsa modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalarni texnik holatini aniqlab, qancha qismi talabga javob berishi va qanchasi talabga javob bermasligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Yangi texnika va texnologiyalar qo'llanganda kutilayotgan natija va mavjud texnologiyalar samarasi solishtirilib tahlil qilish asosiy vazifa hisoblanadi.

Asosiy vositalarni tahlil qilish usullari baholashning boshlang'ich va tiklash, qoldiq qiymatlarida ifodalash usullari mavjud. Asosiy vositalarni baholashning boshlang'ich qiymati tarkibiga ularni xarid qilish yetkazish va o'rnatish yoki xarid qilish paytidagi qiymati kiradi.

Binolar va inshootlarni xo'jalik uslubida qurishda boshlang'ich qiymatga qurilish bilan bog'liq barcha xarajatlar, xom-ashyo, me'morlar va huquqshunoslar xizmatlari uchun haq to'lash, qaydnoma xarajatlari, loyihalashtirish-tadqiqot ishlari, qurilish paytida sug'urtalash xarajatlari, obyekt qurilishiga berilgan kreditlar bo'yicha foizlar, qurilish ruxsatnomasi qiymati va boshqa xarajatlar summasi kiritiladi. Yangi ilmiy, texnikaviy va iqtisoiy bilimlarni omuxta qilgan holda yondoshuv ta'moyili muhim jihatlarni belgilovchi ta'moyillardandir.

Agar o'tgan davrda sodir bo'lgan jarayonlar o'rganilganda edi, unga bir xil yaxshi ishlangan tahlil usullari bilan yondoshish mumkin edi. Ammo FQTDa asosan kelgusi bajariladigan funksiyalar o'rganilganligi tufayli har bir tahlil chuqur tadqiqotga tayanadi. Bu esa, eng yangi usullarni, fan va texnika yutuqlarini qo'llashni taqozo qiladi. O'z navbatida bunday yondoshuv yangi ilmiy, texnikaviy va iqtisoiy bilimlarni omuxta qilgan holda yondoshuvni talab qiladi.

Iqtisodiy tahlil qilishda, ma'lumotlarni qayta ishlashda turli- tuman uslublar qo'llaniladi. Bu uslublarni qo'llash jarayonida tahlil metodining asosiy hususiyatlari kompleks va sistemalashganligi yaqqol ko'rinadi. Xo'jalik jarayonlarining umumiy

birligi, ketma-ketligi va ayrim elementlardan iboratligi tahlil qilishda asosiy e'tiborda turadi.

Tahlil usullarini qo'llash o'rganilayotgan jarayonlarni bir-biriga bog'liqligi, o'zgarish sababi, ta'sir ko'rsatgan omillar va qo'shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Tahlil qilishda oddiy va matematik usullari qo'llanilib, ular orqali asosiy vositalar qiymatining o'zgarishiga baho beriladi. Oddiy usullar tarkibidagi taqqoslash, guruhlash, mutlaq farqlar, nisbiy farqlar, zanjirli bog'lanish hamda integral usullar keng qo'llaniladi.

Asosiy vositalar bo'yicha ma'lumotlar o'zining guruhlash belgisi bo'yicha turlicha tarkiblangan holda o'rganiladi. Bu esa ko'rsatkichlarning o'zaro bir-biriga nisbatan qiyosiy o'zgarishlarini, ularning sabablarini aniqlash, baholash imkonini beradi.

Mutlaq va nisbiy farqlar usullari qo'llanilganida asosiy vosita qiymatining haqiqatda rejaga nisbatan o'zgarishi, hisobot yilida o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishiga baho beriladi.

Integral usuli ham omilli tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Bu usul qo'llanilganda asosiy vositalarning har qaysi turining jami asosiy vositalardagi, shu bilan birga jami korxonalaridagi salmog'i aniqlanib, ularning tutgan o'rniga baho beriladi.

Asosiy vositalar tahlilida oddiy usullardan tashqari ilg'or matematik statistik usullar ham qo'llaniladi, bu usullar orqali asosiy vositalar holati, harakati, samaradorligi to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlar olishga imkoniyat tug'iladi. Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksariyat yetuk iqtisodchi olimlarimiz tahlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarida shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko'rsatishmoqda. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhi;
2. Iqtisodiy-matematik usullar guruhi.

Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhiga iqtisodiy tahlil paydo bo'lgandan buyon qo'llanilib, an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo'llanilib kelayotgan usullar kiritiladi. Ular tarkibiga mutloq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli, taqqoslash usuli, guruhlashtirish usuli, balansli bog'lanish usuli, zanjirli bog'lanish usuli, indeks usuli, foizlar farq usuli va hakoza usullarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.


Iqtisodiy-matematik usullari iqtisodiy axborotlarni elektron hisoblash mashinalarda hisoblash va qayta ishlash, bu ma'lumotlarni tez muddatda boshqaruv hodimlariga uzatish ishlari boshlanganda qo'llaniladi.

Iqtisodiy-matematik usullar guruhiga odatda, korrelyatsion va regratsion tahlil usuli, nazariy o'yin (nazariy xizmat ko'rsatish) usuli, iqtisodiy tashxis qo'yish usuli, integral usuli, funksional qiymatli tahlil usuli, chiziqli programmalashtirish usuli, grafikli usul, evrestik tahlil usuli va hakoza usullarni kiritishimiz mumkin bo'ladi. Iqtisodiy matematik usullarni bugungi kundagi ayrim iqtisodiy adabiyotlarda omilli tahlil usullari ham deb nomlanmoqda. Chunki, mazkur usullar orqali ma'lum bir iqtisodiy hodisa va jarayonga ta'sir etuvchi bir nechta omillarning ta'sirini aniq miqdorlarda aniqlash imkoniyati mavjudligidadir.

Tahlilining oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullaridan eng ko'p va avvaldan qo'llanilib kelinayotgani taqqoslash usulidir. Har kanday iqtisodiy hodisa, jarayonni o'rganish, taqqoslash, ma'lum ko'rsatkichlar bilan nisbat, solishtirish yo'li bilan o'rganiladi. Bunday o'rganishda hodisa va jarayonlarni o'zgartirishining asosiy va qo'shimcha sabablari aniqlanadi, taraqqiyot darajasiga baho beriladi. Odatda tahlil taqqoslash bilan boshlanadi deyiladi. Taqqoslashning bir necha turlari mavjud: masalan asosiy vositalarni oladigan bo'lsak hisobot yili ma'lumotlari, o'tgan yillar erishilgan ko'rsatkichlardan yuqorimi yoki teskari.

Bizga ma'lumki, iqtisodiy tahlilning muhim vazifalaridan yana biri tuzilgan biznes reja ko'rsatkichlarini bajarilishiga baho berishdan iboratdir. Shundan ham ma'lumotlardagi hisobot (o'rganilayotgan) yil erishilgan natijalarini taqqoslash tahlilining ahamiyati yuqoriligi ko'rinadi (1.3.1-rasm).

Taqqoslash usulining qo`llanilish doirasi⁷



Biznes reja ma'lumotlari bilan haqiqatda erishilgan natijalarni taqqoslab, aniqlangan farqlar tahlilning keyingi chuqur o'rganish uchun obyekt bo'ladi, ya'ni hisoblangan o'zgarishlar tuzilgan biznes rejaning asoslanganligi, to'g'ri va bor haqiqiy imkoniyatga yaqin, bajarilish imkoniyati kengligini bildiradi. Shunday, ekan asosiy vositalar sifati haqiqatdan mavjudligi va yaxshi ishlayotganini, uzoq muddatga xizmat qilishi ifodalaydi.

⁷ BMI ma'lumotlari asosida tuzildi

Tahlilda muhim ahamiyatni chet el tajribalarini o`rganish maqsadida tashkil etiladigan horijiy firmalarning asosiy vositalari bilan o`zimizning korxonalar (firma)larning asosiy vositalar haqidagi ma`lumotlarini taqqoslash egallaydi. Bunda ko`rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslashni moslashtirilib, so`ngra esa ilg`or tajriba natijalari o`rganiladi va kelgusi faoliyatda bu tajribalarga amal qilish yo`llari ko`rsatiladi. Korxonalar (firma) faoliyatida qanchalik ko`p chet el ilg`or tajriba va texnologiyasi joriy qilinish yo`llarini belgilash, kelgusida shunchalik samarali, ishlab chiqarishni tashkil qilishga asosiy zamin bo`ladi. Tahlilda taqqoslanishning turli usullarini muntazam qo`llash, yo`l qo`yilgan kamchiliklarni tuzatishga, yuqori ko`rsatkichga va tajribaga ega bo`lgan qo`shni xo`jaliklar yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratadi.

Taqqoslash usuli korxonalar faoliyatida faqatgina asosiy vositalarni emas balki korxonadagi jamiki ko`rsatkichlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul faqatgina korxonalar ham emas balki tuman, viloyat va respublika ma`lumotlari bilan o`rganilayotgan xo`jalik ma`lumotlarini solishtirishda ham ishlatiladi. Bularning barchasi xo`jalik faoliyatining to`la va chuqur o`rganishga, ko`rsatkichlarni o`shirish yoki kamayganini aniq bilishga imkon yaratadi. Quyidagi rasmda taqqoslash usulining qo`llanilishi doirasi ko`rsatilgan.

Xo`jalik jarayonlarini o`rganish, tahlil etishda yangi usul va vositalardan foydalanish iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning muhim yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu ma`noda tahlilda qo`llaniladigan iqtisodiy-matematik usullarni ham ushbu qatorga kiritish mumkin.

Iqtisodiy-matematik usullarni qo`llash asosida:

- tahlilni bajarish muddati tezlashadi;
- o`zgarishlar va ularning ta`sirini aniq hisoblash mumkin bo`ladi.
- har bir ta`sir etuvchi omilning miqdor va sifat jihatlarini aniq ko`rsatib berish imkoniyati tug`iladi;
- hisoblash texnikalaridan foydalanish osonlashadi va hokazolar.

Tahlilda qo`llaniladigan iqtisodiy-matematik usullar va ularni o`llash o`rni⁸

T/r	Usullarning nomi	Izoh
1	Korreksion-regratsion tahlil usuli	O`zgaruvchi birlikka ta`sir etuvchi, o`zaro aloqadorlik va bog`lanishdagi alohida belgining boshqa belgilar ta`sirida o`zgarishlarini aniqlash
2	Logarifmlar usuli	Natijaviy ko`rsatkichga ta`sir etuvchi ko`plab omillarning ta`sirini aniqlashning matematik ifodaga solinishi
3	Deterninantlat usuli	Yakuniy ifodaga ta`sir etuvchi bir omilning ikkinchi omilni bup tug`diruvchi va ularning alohida tarkiblanishi
4	Matritsalar usuli	Yakuniy ifoda va natijaviy ko`rsatkichlarga ta`sir etuvchi omillarni juftlik, birlik va ko`plik koefitsentlarda aniqlash
5	Chiziqli programmalashtirish usuli	Xo`jalik jarayonlarini funksiya va cheklanishlarda qatorli tarzda programmalashtirish va ularni boshqarish bo`yicha muqobil qatorlardan eng optimal variantlarini aniqlash
6	Nazariy o`yin usuli	Ijtimoiy, ekologik, texnologik shartlarni hisobga olgan holda boshqarishni bir xil darajada saqlashning shartlarini belgilash
7	Va hakoza usullar	...

Turli davrlarda amalga oshirilgan yoki xarid qilingan asosiy vositalar hajmi korxonalar balansida shu davr narxlarida hisobga olinadi.

Bu korxonalar asosiy vositalarini taqqoslash, asosiy vositalardan foydalanishni tahlil qilish va hokazolarda noqulayliklar yaratadi

Asosiy vositalarning tiklash qiymati milliy valyutadagi zamonaviy narxlar va tariflar darajasidan kelib chiqib, xarid qilish, yetkazib berish va montaj qilish sharti bilan ularni tiklash chiqimlarini o`z ichiga oladi.

Tiklash qiymati O`zbekiston Respublikasi hukumati korxonalar va tashkilotlar asosiy vositalarini qayta baholash to`g`risidagi qarori asosida belgilanadi. Xalqaro standartlarda moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar boshlang`ich qiymatini aks ettirish uchun moliya yili oxirida yoki hukumat taklifi bilan qayta baholashni o`tkazishni taklif qiladi. Respublikamizda asosiy vositalarni qayta baholash hukumat

⁸ BMI ma`lumotlari asosida tuzildi

qarori bilan, shuningdek, davlat korxonalarini aksiyadorlashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tuzishda amalga oshiriladi.

2-bob. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari

2.1. Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirishda asosiy vositalarning texnik holati tahlili

Mulkchilik tizimining turli shakllariga asoslangan iqtisodiyot bozor mexanizmlarining muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning subyektlari bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordir. Bu esa, albatta, sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarni davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni, iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti hisoblangan oldingi Urganch vinzavodi 1936 yilda "Uzta'mirsotish" korxonasi negizida tashkil topgan. 1940 yilda vino tayyorlashga ixtisoslasha boshlagan. 1961 yilda korxonaga yangi texnikalarning kiritilishi natijasida qo'l kuchi biroz kamaydi

1994 yilda "Urganch Sharob" ochiq aksionerlik jamiyatiga aylantirilgan. Ustav fondi 19682,8 ming so'mni tashkil qilgan. Bir aksiya bahosi 100 so'mdan iborat bo'lgan (2.1.1-jadval)

2.1.1-jadval

"Urganch Sharob" ochiq aksionerlik jamiyatining 1994 yildagi aksiyalar paketi to'g'risida ma'lumot⁸

No	Aksionerlar	Aksiyalar soni (dona)	Aksiyalar bahosi (so'm)	%
1	Davlat	100382	10038200	51
2	Mehnat jamoasi	19023	1902300	9,665
3	Tashiqi investorlar	49207	4920700	25

⁸ www.urganchsharob.uz

4	Erkin savdo	28216	2821600	14,335
Jami		196828	19682800	100

Yuqoridagi jadvaldan ko`rinib turibdiki “Urganch Sharob” ochiq aksionerlik jamiyatida davlat aksiyalarining ulushi 51 %ni tashkil qilib, shi davrda, ya`ni 1994 yilda ularning soni 100382 dona bo`lib, bu aksiyalarning jami bahosi 10038200 so`mni tashkil qilgan. Mehnat jamoasi aksiyalarining ulushi esa 9,665 % ni tashkil qilib, shi davrda, ularning soni 19023 dona bo`lib, bu aksiyalarning jami bahosi 1902300 so`m bo`lgan. Tashiqi investorlar aksiyalarining ulushi esa 25%, ularning soni 49207 dona bo`lib, bu aksiyalarning jami bahosi 4920700 so`mga teng bo`lgan. Erkin savdoda aksiyalar soni 28216 dona bo`lib uning qiymati 2821600 so`mdan iborat bo`lgan. Bu esa jami aksiyalar paketining 14,335 % dan iborat demakdir.

Jamiyatning Ustav fondi O`zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish davlat qo`mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining 2012 yil 14 may №17-sonli buyrug`I bilan Ustav fondi 699375600 so`m qilib belgilandi. Aksiyalar soni 2331252 dona, e`lon qilingan aksiyalarning eng ko`p miqdori 1000000000 so`m miqdorda belgilanadi. 2012 yilga kelib 2.1.1-jadvaldagi ma`lumotlarning o`zgarishi quyidagi 2.1.2-jadvalda o`z aksini topadi

2.1.2-jadval

“Urganch Sharob” ochiq aksionerlik jamiyatining 2012 yildagi aksiyalar paketi to`g`risida ma`lumot⁹

№	Aksionerlar	Aksiyalar soni (dona)	Aksiyalar bahosi (so`m)	%
1	Davlat	1118935	356680500	51
2	Mehnat jamoasi	629568	188870400	27,01
3	Tashiqi investorlar va Erkin savdo	512749	153824700	21,99

⁹ www.urganchsharob.uz

Jami	2331252	699375600	100
------	---------	-----------	-----

1994 yilda aksiyalar soni 196828 dona bo`lgan bo`lsa 2012 tilga kelib bu ko`rsatkich 2331252 donaga etdi, ularning summasi esa 19682800 so`mdan 699375600 so`mga oshgan. Aksiyadorlar o`rtasida aksiya paketlarining taqsimlash % lari ha ozgargan. Misol uchun mehnat jamoasining ulushi 9,665 % dan 27,01 % ga, shu davrda tashiqi investorlar va erkin savdo ulushi qo`shganda 39,335 % bo`lgan bo`lsa 2012 yilga kelib 21,99 % ga kamaygan

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining moddiy texnika vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanganligini o`rganish bilan bir qatorda, ularning texnik holatiga ham baho berib boriladi. Odatda asosiy vositalar tarkibida yil davomida o`zgarishlar ro`y beradi. Yagi asosiy vositalarni kirimi tufayli asosiy vositalar ortib boradi. Eskirgan asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan chiqarish tufayli asosiy vositalar kamayishi mumkin. Bunday tabiiy holatlarni ro`y berishi natijasida asosiy vositalarning texnik holatini tahlil etishimizni taqozo etadi.

Respublikamizda bozor munosabatlarining qaror topishi, xo`jalik yuritishning zamonaviy shakllarining joriy qilinishi korxonalar va firmalarda mablag` topishning ilg`or shakllarini qidirib topishni, yo`lga qo`yishni taqozo etmoqda. Korxonalar va firmalarda ishlab chiqarish faoliyatining bir me`yorda davom etishini ta'minlash maqsadida asosiy vositalarni uzoq va qisqa muddatli ijaraga olish, ya'ni lizing munosabatlari yuzaga kelmoqda. Bu kabi o`zgarishlar iqtisodiy tahlilda yangi obyektlar yuzaga kelganligini ifodalamoqda. Iqtisodiy tahlilda lizing muomalalarini, lizing to`lovlari kelib tushishini, lizing muomalalari daromadlilikini aniqlash dolzarb bo`lib bormoqda.

Asosiy vositalar tahliliga e'tiborning kuchayib borayotganligining yana bir jihati shundaki, hozirgi kunda asosiy vositalarga eskirish hisoblashda jadallashtirilgan amortizasiyaning qo`llanishi ham sabab bo`lmoqda. Jadallashtirilgan amortizasiyani tahlil qilishda asosiy e'tibor ushbu usullarni qo`llash orqali korxonaning ishlab chiqarayotgan mahsulotning tannarxi o`zgarishiga ta'siri bor yoki yo`qligiga, soliqqa tortishning ta'siriga baho beriladi. Shu jihatdan asosiy vositalarning harakati,

korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, asosiy vositalar qay darajada samarali ishlayotganligi o'rganishdagi muhim vazifalar belgilanadi.

Tahlil oldida bu borada quyidagi vazifalar turadi:

- korxonada mavjud asosiy vositalarning holatini baholash;
- korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasiga baho berish;
- asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni belgilash, shu asosda asosiy vositalarning rentabellik darajasini, fond qaytimi va fond sig'imi darajalarini aniqlash;
- ijaraga olingan asosiy vositalarning holatini, harakatini va samaradorligini tahlil qilish;
- korxonada asosiy vositalaridan samarali foydalanish maqsadida kerakli xulosalar berish.

Asosiy vositalar dinamikasi, ularning ta'minlanganligi, shuningdek, samaradorligi tahlilida asosiy e'tibor korxonada asosiy vositalarning texnik holati qay darajada ekanligiga, korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasiga, samaradorlik ko'rsatkichlariga, dinamikasiga qaratiladi.

Asosiy vositalarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga asosiy vositalarning umumiy mablag'dagi hissasi, asosiy vositalar faol qismining umumiy asosiy vositalardagi ulushi, asosiy vositalarning eskirish koeffisienti, asosiy vositalarning yangilanish koeffisienti, asosiy vositalarning yaroqlilik koeffisienti, asosiy vositalarning chiqib ketish koeffisienti va boshqalar kiradi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanish deyilganda korxonaning rejaga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi tushuniladi. SHuningdek, asosiy vositalarning tarkibi, turi bo'yicha o'zgarishlariga baho beriladi. Tahlil etishda asosiy vositalarning holat va harakat ko'rsatkichlariga ham muhim e'tibor qaratiladi. Bu orqali bevosita asosiy vositalarning eskirish va yaroqlilik darajasi, kirim-chiqim ko'rsatkichlariga baho beriladi.

**"Urganch Sharob" ochiq aksiyadorlik jamiyatining 2014 yil 1 yanvar holatiga
asosiy vositalar harakati to`g`risida ma`lumot (ming so`m)**

Ma'lumotlardan ko`rinadiki, 2014 yilda muassasa binosining boshlang`ich qiymati yil boshiga 1380557 ming so`mni tashkil qilib yil oxiriga qoldiq 1761773 ming so`mni tashkil qilgan.

Yig`ilgan amortizasiya miqdori yil boshiga qoldiq 152166 ming so`m, yil oxiriga qoldiq esa 197547 ming so`mdan iborat bo`lgan. Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi yil boshiga nisbatan 22,4 % ga ko`paygan bo`lib, jami asosiy vositalarning 90,9 % ini tashkil qilmoqda. Qolgan 68,5 % asosiy vositalar o`zining xizmat muddatini o`tab bo`lgan hamda eskirgan asosiy vositalar hisoblanadi. Korxonadagi mashina va jihozlarning 2014 yil boshiga qoldig`i 1847935 ming so`m bo`lgan bo`la, yil oxiriga qoldiq 1948067 ming so`mga yetgan.

Transport vositalarining yil boshiga qoldiq qiymati 401991 ming so`m bo`lsa, yil oxiriga kelib bu ko`rsatkich o`zgarmagan. Yihilgan amortizasiya miqdori yil boshiga 92031 ming so`mni, yil oxiriga kelib esa 167394 ming so`mni tashkil qilgan. Qoldiq qiymat yil boshiga 309960 ming so`m, yil oxiriga esa 234597 ming so`mni tashkil qilgan.

2.1.4-jadval

"Urganch Sharob" ochiq aksiyadorlik jamiyatining 2014 yil 1 yanvar holatiga asosiy vositalar harakati to`g`risida ma`lumot (ming so`mda)¹¹

Asosiy vositalar	Boshlang`ich qiymat	Eskirish qiymati	Qoldiq qiymat
Yil boshiga	12041791	2721864	8263722
Yil oxiriga	12446151	3810228	8635923
Farqi (+, -)	404360	1088364	372201

¹¹ BMI ni ishlash jarayonida to`plangan ma`lumotlar asosida tuzildi

Yuqoridagi 2.1.4-jadval ma'lumotlari asosida asosiy vositalarning texnik holatini tahlil qilganimizda yil boshida eskirish qiymati 2721864 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 3810228 ming so'mni tashkil etgan, yil boshiga nisbatan 1088364 ming so'mga kamaygan. Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasini tahlil qilganimizda yil boshiga nisbatan yil oxirida o'sish ko'zatilgan, bundan ko'rinadiki korxonaning asosiy vositalarining texnik xolati yaxshilanib borishini ijobiy baholasa bo'ladi.

Asosiy vositalarining unumini o'rganish asosida mahsulot ishlab chiqarishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarining omilli tahlili asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasi yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o'rganiladi va tahlil yakunida korxonada asosiy vositalardan foydalanishga va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan muhim iqtisodiy yo'nalishlar belgilanadi. Korxonada asosiy vositalari, ularning holati, harakati va samarasiga iqtisodiy tashxis beriladi.

2.2. Korxonalarining moddiy-texnika darajasini oshirish imkoniyatlari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy o`shirishning makroiqtisodiy mutanosibligi va barqaror sur`atlarini, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta`minlash, aholi bandligiga ko`maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari korxonalari hamda kichik biznesni aniq qo`llab-quvvatlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida"gi PF-4058 sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda mamlakat iqtisodiyoti real sektorida jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlari nimalar hisobiga bartaraf etilishi mumkin bo`lgan hal qiluvchi omillar aniq belgilab berilgan va ishlab chiqarishni keyinchalik barqaror o`stirish va hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning yangi bozorlarini o`zlashtirish uchun asos solingan.

Birinchi navbatda bu - korxonalarda modernizatsiya texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini o`tkazishdan iboratdir. Eng avvalo, bu iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlariga, eksportga yo`naltirilgan va import o`rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga taalluqlidir. Korxonalar, birlashmalar va xo`jalik yurituvchi subyektlar rahbarlarining diqqat-e`tibori ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishni jadallashtirish, eng ilg`or texnologiyalarni jalb etish xalqaro sifat standartlariga o`tish zarurligiga qaratilganki, bular tashqi bozorlarda ham, ichki bozorlarda ham barqaror mavqe`larni ta`minlash imkonini beradi.

Xorijiy iqtisodchilarning fikrlariga ko`ra, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va yangi texnologiyalarni o`zlashtirish, buning hisobiga eng kam chiqim bilan sifatli raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta`minlash chora-tadbirlarini o`z vaqtida ko`rib qo`ygan mamlakatlar vujudga kelgan inqirozdan eng kam nobudgarchilik bilan chiqadilar. Shu boisdan Farmonda bazaviy tarmoqlarni modernizatsiyalashning 11 ta eng muhim dasturini amalga oshirishni jadallashtirish, sanoat korxonalarining eskirib

qolgan uskunalari asosiy fondlarini tezlik bilan chiqarib tashlash, texnik qayta jixozlash loyihalari bo`yicha uskunalar xarid qilishga ildam buyurtmalarni amalga oshirish, sanoatda va transport infratuzilmasida eng muhim loyihalarni amalga oshira boshlashni va uning muddatlarini jadallashtirish borasida qo`shimcha chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Mazkur tadbirlarni o`tkazish real mablag` manbalari bilan mustahkamlangan – korxonalarining o`z mablag`lari, banklarning kreditlari, shu jumladan, ularning kapitalini talay darajada ko`paytirish hisobidan beriladigan kreditlar, shuningdek, tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hamda xalqaro moliya institutlarining kreditlari shular jumlasidandir.

Respublika korxonalari tomonidan eksport qilinadigan bir qator mahsulot turlari bo`yicha jahon tovar bozorlaridagi joriy kon`yunkturaning keskin yomonlashuvi - bugungi kunda g`oyat muhim bo`lib turgan masalalarning biridir.

Ko`rsatib o`tilgan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida, farmonda hukumat tomonidan eksport qiluvchi korxonalarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta`minlash va eksport uchun qo`shimcha omillarni yaratishda ularni qo`llab-quvvatlash bo`yicha aniq choralar ko`rish nazarda tutilgan. Buning uchun eksportyor korxonalariga aylanma mablag`larini to`ldirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, ularga vaqtincha soliq imtiyozlari va mavjud kreditorlik qarzini restrukturizatsiya qilish imkoniyatini berish mo`ljallanmokban.

Mahsulotning raqobatbardoshligini ta`minlash nuqtai nazaridan qaraganda, xususan, sanoatning bazaviy tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlarini qat`iy nazoratga olish va iqtisod qilishning qattiq tartibini joriy etish eksport qiluvchi korxonalar uchun katta ahamiyatga egadir. SHuning uchun ham dasturda elektr energiya va asosiy kommunal xizmatlar narxlarining asossiz oshib ketishiga yo`l qo`ymaslik, korxonalarda texnologik jarayonlarni rasionalizatsiyalash, materiallar va energiya sarfini hamda boshqa sarf-xarajatlarni kamaytirish hisobiga mahsulot tannarxini kamida 20 foizga arzonlashtirish bo`yicha maxsus chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Chora-tadbirlar dasturida ko`zda tutilganidek, elektr-energetikani, ishlab chiqarish tizimini, elektr energiyani uzatish va iste'mol qilishni keng miqyosda modernizatsiyalash, energiya sarfini kamaytirish va energiyani tejash tizimini tadbir etish ham iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishga yo`naltirilgandir. Shu bilan birga chora-tadbirlar Dasturida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda rag`batlantirishga katta e'tibor beriladi. Buning uchun kichik va xususiy biznesga tijorat banklarining, shu jumladan Imtiyozli kreditlash jamg`armasidan kreditlar berishni kengaytirish, zamonaviy import uskunalari va minitexnologiyalar xarid qilish uchun kredit liniyalari ochish, shuningdek, bir qator qo`shimcha soliq imtiyozlari berish nazarda tutilgan.

Uy-joy qurilishi va ayniqsa, yakka tartibdagi uy-joylarni hisobga olgan holda, amaldagi uy-joy fondini ta'mirlash, tiklash va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlarining o`zaro bog`liq tizimini yaratish iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi bandligiga ko`maklashishning muhim omilidir.

Farmonda mazkur yo`nalishda ixtisoslashayotgan tashkilotlarni tuzishni rag`batlantirish, ularga zarur zamonaviy ishlab chiqarish-ta'mirlash bazasini tarkib toptirish va shakllantirishda yordam ko`rsatish nazarda tutilgan. Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha Farmon bilan tasdiqlangan Dasturda belgilab qo'yilgan qo`shimcha chora-tadbirlar ichki manbalar hisobidan mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi ishonchli zaxiralarni yaratish imkonini beradi, bu esa jahon bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxi o`shib borayotgan sharoitda alohida ahamiyatga egadir.


Korxonalarini modernizatsiya qilishda, eksport qiluvchi korxonalar va kichik biznes subyektlarini qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda tijorat banklarining muhim rolini inobatga olgan holda Farmonda banklarning real sektor korxonalarini o`z vaqtida moliyaviy qo`llab-quvvatlashdagi javobgarligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Farmonda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi

sharoitlarida ham real sektor korxonalarining barqaror ishlashini, iqtisodiyotning muttasil va mutanosib o`shirishini ta'minlash hamda shu asosda mamlakatni yanada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish vazifalarini tizimli, izchil hal etish imkonini beradi.

2.2.1-rasm

Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlari¹²



Prezidentimiz o`z asarlarida Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo`limlari – belgilangan kompleks chora-tadbirlar haqida to`xtalib o`tib, mazkur chora-tadbirlar orqali hal etilishi lozim bo`lgan asosiy vazifalarni belgilab berdilar.

Birinchidan – korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo`naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir. Shunga ko`ra, ushbu tarmoqlardagi korxonalarni bir qator asosiy yo`nalishlar bo`yicha qo`llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

¹² Paradaev M.Q. Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. 1-2 qism.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2001 y.

**O`zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan
modernizatsiyalash dasturlari¹³**

Modernizatsiya dasturlari	Qabul qilingan sanasi	Loyihalar soni		Loyihalar qiymati (mln. doll.)		Xorijiy investisiya ulushi jami %
		jami	xorijiy investisiya ishtirokida	jami	xorijiy investisiya	
Engil sanoatini MQ	13.11.2006y.	66	61	466,9	452,45	96,9
Paxtani qayta ishlash sanoatini MQ	03.04.2007y.	41	-	125,4	-	-
Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini MQ	01.06.2007y.	36	7	343,06	160,12	46,7
Yog`-moy va oziq-ovqat sanoatini MQ	12.06.2007y.	63	10	32,14	2,03	6,3
«O`zmetkombinat» korxonasini MQ	10.07.2007y.	9	-	49,04	-	-
Kimyo sanoatini MQ	27.07.2007y.	30	10	209,67	108,88	51,9
Navoiy tog`-kon metallurgiya kombinatini MQ	07.08.2007y.	24	1	892,1	33	37,0
Olmalik tog`-kon metallurgiya kombinatini MQ	09.08.2007y.	13	-	405,3	-	-
Farmasevtika sanoatini MQ	19.11.2007y.	39	5	26,47	5,1	19,3
2008-2009 yillarda avtomobil sanoati korxonalarini MQ	05.12.2007y.	26	9	255,06	13,57	5,3
Qishloq xo`jalik mashinasozligini MQ	07.04.2008y.	13	-	27,98	-	-

¹³ www.urganchsharob.uz


Ma'lumki, mamlakatimiz yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Bu o'rinda mazkur tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo'yilmoqda. O'z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi. Ikkinchidan – joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish, xususan, aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalariga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

Ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investisiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarini byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan – qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish.

Banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish (2.2.2-rasm).

Prezidentimizning asarlarida ta'kidlaganidek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, birinchi navbatda, eksport salohiyatimizga eksport uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilar va ular bilan iqtisodiy jihatdan aloqador bo'lgan xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramasdan 2008 yilda izchil ravishda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, eksport uchun tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar va xo'jaliklarni hamda import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash, turli imtiyozlar berish natijasida mamlakatimizda tashqi savdo aylanmasining o'sishiga erishildi.

Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash choralari¹⁴



Korxonalarining texnikaviy darajasini ko'tarish deganda asosiy vositalar tahlilini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Nimaga deganda korxonani binosi, ishlab turgan texnikasidan tortib o'zlari uchun xizmat qiladigan avtomobillarigacha asosiy vosita tarkibiga kiradi. Endi shunday ekan korxonadagi asosiy vositalarni asrab avaylash va ehtiyotkorlik bilan ishlashni talab qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berildi. Ayniqsa, savdo-sotiqda erkin munosabat yuritish,

¹⁴ my.gov.uz

hamkorlikda faoliyat ko`rsatish uchun sherik tanlay bilish, o`zi ishlab chiqargan va sotishdan olgan daromadga to`liq egalik qilish muhim ahamiyatga ega. Yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmokda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamkor tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o`rganish zarurligini keltirib chiqardi.

Korxonalarining xo`jalik faoliyatini tahlil qilish ishlarini yaxshilash samaradorligini oshirish muhim omil bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi. Xo`jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, asosiy vositalar va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Foydalanilmagan resurslarni aniqlash, korxonalarining kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarining natijasi hamda samaradorligi ularning asosiy vosita bilan ta'minlanganligiga bevosita bog`liqdir. Chunki korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni hajmi, sifati ulardagi asosiy vositalarining talab darajasida bo`lishligini obyektiv ravishda taqazo etadi. Shuning bilan birgalikda u resurslar zamon talabiga ham mos kelishi lozim. Ya'ni, universalligi, yangiligi hamda arzonligi nuqtai nazaridan.

Korxonalarining asosiy vositalarga bo`lgan talabini aniqlashda me'yoriy hujjat va ma'lumotlardan foydalanish lozim. Sanoat korxonalarida biznes rejada ko`rsatilgan mahsulotlar miqdorini ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan asosiy vositalarining mavjudligi aniqlanadi. Ya'ni qancha stanoklar qancha mashinalar, mexanizmlar, shuningdek, boshqa moddiy resurslar bo`yicha alohida-alohida hisob-kitoblar qilinadi.

Korxonalarining o`zlaridagi mavjud bo`lgan asosiy vositalarining yil boshiga bo`lgan miqdori yillik amortizatsiya natijasida aniqlanadi. Ularda mavjud bo`lgan material resurslar korxonada ishlab chiqarishini davomiyligini ta'minlash ishlatilayotgan asosiy vositalar jami asosiy vositalarning qancha foizini tashkil etadi va bu borasidagi shartnomalar tuziladi. Bu masalalar yuqoridagi savolda batafsil yoritilgan. Korxonalariga sotib olinayotgan asosiy vositalarini oqimi natijasida

ularning asosiy vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi ortib boradi. Sanoat korxonalarining asosiy vositalari bilan ta'minlanganligini hamda mehnatni ular bilan qurollanganligini ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Masalan, korxonada ixtiyorida yil boshiga 200 mln.so'mlik asosiy vositalarining mavjudligi balansda ko'rsatilgan. Korxonada uchun esa ishlab chiqarishini bir me'yorda rivojlantirish uchun rejaga muvofiq 170 mln.so'mlik asosiy vositalari zarurligi aniqlangan. Demak, korxonada uchun ularga bo'lgan talab to'liq qondirilmoqda. Bu masalani hal etish uchun korxonada qo'shimcha 30 mln.so'mga asosiy vositalarini sotib olishni yoki qarzga, ijaraga berishni rejalashtiradi. U shu masala bo'yicha tuzilgan shartnomalarda o'z aksini topadi. Korxonani moddiy texnik ta'minotini hal etilishi natijasida yil davomida 50 mln.so'mlik asosiy vositalari sotib olingan. Shunda korxonaning asosiy vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi 105% ni tashkil etgan bo'ladi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada asosiy vositalari bilan to'liq ta'minlangan, ya'ni, ularning miqdori 5 % ga ko'p bo'lgan. Bu hol korxonada ishlab chiqarish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Korxonaning asosiy vositalari bilan ta'minlanganligini tahlil etish natijasida ular bilan to'liq ta'minlanganlik faktlari aniqlansa, u holda uni kelib chiqish sabablari o'rganiladi. Shuning bilan birgalikda ushbu ijobiy natijalarni bartaraf etish imkoniyatlari va chora-tadbirlari belgilanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotini erkin bozor munosabatlariga o'tkazish bilan korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning ahamiyati yanada ortadi. Korxonalarni texnik modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar tahlilini korxonalarni ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish yo'llari izlab topish. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniklash va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish, korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari - foyda va rentabellik, iqtisodiy salohiyatini aniqlash korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlariga aylanadi.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning huquqiy ba'zasini tashkil qiluvchi qonunlari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari korxonalarining faoliyatini rivojlantirish va to'g'ri yo'lga solish maqsadida qabul qilinmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarining xo'jalik faoliyati va iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish katta rol o'ynaydi. Korxonalarni texnik modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar tahlilini takomillashtirish yo'llari va tahlili bizning mamlakatimizga kirib kelgan yangi tushunchalardan hisoblanmaydi. Shuning uchun bu borada ko'pgina korxonalarda texnik modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar tahlili amalda qo'llanilmaydi. Respublikamiz korxonalarida texnik modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar aniqlashda xarajatlar nuqtai nazaridan yoki samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil va iqtisodiy salohiyat tahlili boshqa rivojlangan davlatlarda ancha rivojlangan bo'lib, ular asosan avtomatlashgan holda amalga oshiriladi. Xo'jalik faoliyati tahlili avtomatik boshqarish jarayonida bir qancha afzalliklarga erishish mumkin bo'ladi. Korxonani tahlil qilishning texnik modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalarni boshqarish sistemasi sharoitida amalga oshirish quyidagi prinsiplarga amal qiladi:

- Aniq maqsadning sistemalashganligi;
- Kompleksligi;
- Ixchamlashganligi;
- Uzluksiz va muntazamlilik;
- Taqqoslash imkoniyatining kengligi;
- Echim loyihasi aniq va ixchamliligi.

Korxonalarda texnik modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalarini avtomatlashgan sharoitda tahlil uchun kerakli ma'lumotlardan foydalanish xususiyatlari ma'lum darajada imkoniyatlarni ochib beradi:

1. Boshlang`ich hujjatlar - hisob, statistika, normativ ma'lumotlar EHM ning xotirasiga qo`yilib, faqat bir xil manba, ya'ni mashina xotirasiga olinadi.
2. Tahlil uchun kerakli turli murakkab hisoblashlar ma'lum sekundlarda bajariladi.
3. Ta'sir etuvchi omillarni mashinalar aniq ko`rsatib beradi.
4. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar va tahlil natijalari o`rnatilgan shaklda - mashinogramma, tabelogrammalarda ifodalanadi.
5. Turli xil iqtisodiy ma'lumotlar mashinalar uchun bir xil shifr va kodlarda kiritiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda, erishilgan natijalar, yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda va faktlar bilan ko`rsatilgan bo`lishi talab etiladi. Shuningdek, yo`l qo`yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni takliflar ham ko`rsatiladi.

Tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishga korxonaning umummajlis materiallari turli xil diagramma, jadval va grafiklar tuzib mehnatkash ommaga ko`rsatma sifatida osib qo`yish, axborot doskalaridagi ko`rsatkichlarni e`lon qilib borish ham hisobga olinadi. Xo`jalik yurituvchi subyektlarda tahlil qilishdan olinadigan natija, uni axborot va metodik ko`llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog`liq.

Respublikamizda tahlilni axborot bilan ta'minlashda bosh rolni buxgalteriya hisobi va hisoboti egallaydi, sababi bu manbalarda xo`jalik faoliyati va uning natijalari o`z aksini topgan bo`ladi. Birlamchi va hisob registridagi ma'lumotlarni o`z vaqtida va to`la-to`kis tahlil qilish rejaning bajarilishiga, xo`jalik faoliyatini yaxshilashga qaratiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida yangi turdagi iqtisodiy ko`rsatkichlar, atamalar va yo`nalishlar bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kela boshladi. Buning o`ziga xos afzalliklari va yutuqlari mavjud bo`lib, bizning rivojlanayotgan iqtisodiyotimizni jahonning rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga yaqinlashishiga va ular bilan keng turdagi aloqalarni savdo-sotiqlarini olib borishga imkoniyat yaratib bermoqda.

Iqtisodiyotdagi jahon tajribalari butun dunyo qolaversa mamlakatimiz

iqtisodiyotini isloh qilish qolaversa iqtisodiyotimizni rivojlantirishga muhim dastak bo`lib xizmat kilmoqda. Korxonalarda texnikaviy holatini tahlili deganda, uning aktivlar bilan ta`minlanganligi, ya`ni, asosiy vositalar bilan ta`minlanganlik, ularning ahvoli, holati va undan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asosiy vositalar tahlilida asosiy bosqichlardan bo`lib, asosiy vositalarni qayta baholash tahlili hisoblanadi. Bu ma`lumotlar 3-shaklda o`z aksini topadi. Bu tahlil jarayonida asosiy e`tibor, asosiy vositalarning bozor bahosini e`tiborga olishdan iborat. Asosiy vositalarni qayta baholash natijasida korxonada yana bir nechta maqsadlarni ko`zda tutadi. Bular quyidagi maqsadlar:

- Qayta jihozlash;
- Soliq siyosati;

Mol-mulk bilan bog`liq bo`lgan shartnomalar jarayonini soddalashtirish.

2.3 Korxonalarni moddiy-texnika ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari

Korxonalarni texnikaviy modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalarni tahlilni tashkil qilish korxonalar mavjud asosiy vositalarni tejamkorlik bilan ishlatib eskirib bo'lgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarib yangisini sotib olish kerak bo'ladi va resurslardan oqilona foydalanishni talab qiladi. Yil davomida asosiy vositalar tarkibida o'zgarishlar ro'y beradi. Sotib olingan va qurib bitkazilgan obyektlarni ishga tushirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish tufayli asosiy vositalar safi kengayadi. Jismoniy va ma'naviy eskirish tufayli ularni bir qismi safdan chiqariladi.

Asosiy vositalarning tabiiy sharoitlar ta'sirida va ulardan foydalanish jarayonida uning moddiy tuzilishida ichki o'zgarishlar (zanglash, chirish) sodir bo'lganda boshlang'ich holatining yo'qolishi tufayli jismoniy eskirish ro'y beradi. Asosiy vositalar obyektini ishchi holatida saqlab turish ularni ta'mirlash (joriy, o'rtacha va kapital tarzda) vositasida amalga oshiriladi.

Joriy ta'mirlash - asosiy vositalar obyektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir. O'rtacha ta'mirlashda ta'mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi. Uskunalar va transport vositalarini kapital ta'mirlash – agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir. Uskunalar (ishlab chiqarish uskunalari, mashinalar) vaqt jihatdan kalendar, rejim va yillik ish vaqti fondlariga bo'linadi. Mashina va uskunalardan shunday foydalanish kerakki asosiy vositalarga ham ishlovchi xodimlarga ham yaxshi bo'lishini korxonalarda ta'minlay bilishimiz kerak.

Bunday natijalarga erishishimiz uchun biz nima ishlarni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi? Masalan, biron bir korxonadani oladigan bo'lsak u korxonada albatta asosiy vositasi mavjud bo'ladi. Asosiy vositalarni korxonaga olib kelgan vaqt u asosiy vositani hujjati bo'ladi, u xujjatida uskunami, mashinami necha soat ishlatish

mumkinligi, qanaqa haroratda ishlatish kerakligi va uni xujjatidagi talablarga qarab ishlatganimizda bu asosiy vositamiz necha yilga xizmat qilishi kerakligi rasmiylatirilgan bo`ladi. Shunday ekan asosiy vositalarga nisbatan befarq bo`lmasligimiz kerak. Bunday natijalarga erishishimizda bir necha koeffisientlarni ko`rib chiqishimiz kerak bo`ladi. Bu ko`rsatkichlar quyidagilardan iborat.

Kalendar vaqt fondi koeffisienti mashina, uskunalarni yil davomida ishlagan vaqt fondini kalendar bo`yicha vaqt fondiga bo`lish orqali aniqlanadi. Uskunalarni rejim vaqt fondidan foydalanish koeffisientini aniqlash uchun yillik vaqt fondini rejim vaqt fondiga bo`lish lozim.

2.3.1-jadval

Mashina va uskunalarni ish vaqtidan foydalanishini tahlili¹⁵

Ko`rsatkichlar		Hisobot yili		Farqi	
		Reja	Haqiqatda	Soat	%
1	Kalendar vaqt fondi	1305240	1305240	-	-
2	Rejim vaqt fondi	470040	461382	-8658	-1,8
3	Yillik vaqt fondi	421321	419699	-1622	-0,4
4	Foydalanish koeffisienti:				
4.1	Kalendar vaqt fondi (3q:1q)	0,3228	0,3215	-0,0013	X
4.2	Rejim vaqt fondi (3q:2q)	0,8963	0,9096	+0,0133	X

Mashina va uskunalarni ish vaqti fondi mashina – soat, stanok –soatlarda ifodalanadi. Tahlil natijalari shuni ko`rsatadiki, mashina, uskunalarning kalendar vaqt fondi koeffisienti rejaga nisbatan pasaygan.

Pasayish asosan mavjud uskuna va dastgohlar sonini kamayishi tufayli yuz bergan. Rejim vaqt koeffisienti smenalar soni hamda yil davomida ishlagan ish kunlarining o`zgarishiga bog`liq. Yillik vaqt fondining o`zgarishi esa uskuna va dastgohlarni

¹⁵ www.urganchsharob.uz

ichki va tashqi sabablarga ko`ra ish vaqtini yo`qotilishiga bog`liq. Mashina va uskunalardan foydalanishni ifodalovchi ko`rsatkichlar bo`lib intensiv, ekstensiv va integral koeffisientlari hisoblanadi.

Mahsulot hajmini rejaga nisbatan 3403054,4 ming.so`mga ortig`i bilan bajarilishi asosan mashina va uskunalar unumdorligini o`shishi hisobiga yuz bergan. Yo`qotilgan vaqt 1622 mashina – soatni tashkil etgan. Mashina va uskunalardan vaqti va quvvati bo`yicha foydalanish koeffisientlaridan to`g`ri foydalansak asosiy vositalarimizni ko`p yilga xizmat qilishini ta`minlagan bo`lamiz. Bundan kelib chiqadiki tahlilni takomillashtirish bitta korxonaga uchun emas, balki mamlakatimizdagi jamiki korxonalarimizga kerak bo`ladi.

2.3.2-jadval

Mashina va uskunalardan vaqti va quvvati bo`yicha foydalanishni tahlili¹⁶

№	Ko`rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi	
				mutloq summa	%
1	Mahsulot hajmi, ming.so`m	2003271,3	5406325,7	+3403054,4	+269,8
2	Ishlagan mashina – Soat	421321	419699	-1622	-0,4
3	1 mashina - soatga to`g`ri keladigan mahsulot, ming so`m	4,75	12,88	+8,13	+271,2

Binolar va inshootlarni kapital ta`mirlash - bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta`mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta`mirlashdir. Obyektni ishchi holatida tutib turish va undan foydalanishdan kelgusida olinadigan iqtisodiy foydaning belgilangan boshlang`ich summasini olish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar ular daxldor bo`lgan hisobot davridagi xarajatlar tarkibiga kiritiladi. Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turishga doir xarajatlar (texnik ko`rikdan o`tkazish va holatini yaxshilashga oid xarajatlar) hamda ishlab chiqarishdagi asosiy

¹⁶ www.urganchsharob.uz

vositalar obyektlarining barcha turdagi ta'mirlanishini (joriy, o`rtacha, kapital tarzda) o`tkazish xarajatlari mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladi, ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun mo`ljallangan asosiy vositalar obyektlari bo`yicha esa - davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Agar bitta asosiy vositada turlicha foydali ishlatish muddatiga ega bo`lgan bir nechta mustaqil obyektlar mavjud bo`lsa, tiklash chog`ida har bir bunday obyektни almashtirish chiqib ketish va mustaqil inventar obyektini xarid qilish sifatida hisobga olinadi.

Asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligini aniqlash va ularning butligini nazorat qilish maqsadida korxonalar tomonidan vaqti-vaqti bilan, biroq ikki yilda kamida bir marta asosiy vositalarni inventarlash o`tkaziladi, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarlanadi.

Asosiy vositalarni inventarlash O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 19 oktyabrda EG/17-19-2075-son bilan tasdiqlangan O`zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-son BHMS) "Inventarlashni tashkil qilish va o`tkazish"da (ro`yxat raqami 833, 1999 yil 2 noyabr) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Inventarlash chog`ida aniqlangan ortiqcha asosiy vositalar obyektlari boshqa operasion daromadlar sifatida aks ettiriladi. Inventarlash vaqtida kamomadi fakti aniqlangan yetishmayotgan asosiy vositalar obyektlari aybdor shaxslar aniqlangan kunga qadar kamomadlar hisobga olinadigan schyotda aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning balans qiymati ularning haqiqiy (joriy) qiymatiga mos kelmasligi aniqlangan holatda oshirish yoki kamaytirish mazkur standartning 27-bandiga muvofiq amalga oshiriladi. Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish jarayonida muhim o`rin tutadi, ular jamlikda korxonaga tayanadigan ishlab chiqarish – texnika bazasini tashkil etadi va korxonaning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezoni hisoblanadi.

Asosiy vositalar va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish natijasida barcha texnika – iqtisodiy ko`rsatkichlardan yuqori darajaga

erishiladi, jumladan, mahsulot hajmi mehnat unumdorligi o`shishi tufayli ortadi, uning tannarxi pasayadi.

Eksport hajmini ortishi, mahsulotni raqobatbardoshligi korxonani zamonaviy ilg`or texnika bilan ta`minlanishiga, investisiya hajmiga ko`p jihatdan bog`liq. Mamlakatimizdagi investisiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonlariga bozor islohatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlash chora – tadbirlari ta`siri yuqori bo`lmoqda.

Investisiyalarning moliyalashtirish manbalari orasida korxonaning xususiy mablag`lari hamda to`g`ridan – to`g`ri xorijiy investisiyalarning ulushi ortgan holda, davlat budjeti va bankning markazlashgan kreditlarini hissasi keyingi yillarda qisqarib bormoqda. Ayniqsa, asosiy kapitalga investisiyalar oqimining qayta taqsimlanishi bilan bog`liq bo`lgan sanoat va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy o`shishga katta ta`sir ko`rsatmoqda. Bu holat asosiy kapitalga investisiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo`yicha tarkibining o`zgarishiga olib kelmoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek “O`tgan yili faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faolinvestisiya siyosati yuritishga alohida e`ibor qaratildi”

Asosiy vositalarni tahlil etishda korxonaning asosiy vositalar bilan ta`minlanishi, asosiy vositalar harakati, texnik holati, ulardan unumli foydalanish ko`rsatkichlari va ishga solinmagan imkoniyatlari aniqlanadi. Asosiy vositalar tahlili bir necha yo`nalishlarda olib boriladi va asosiy vositalarni tuzilishi, dinamikasi, ulardan hamda uzoq muddatli investisiyalardan samarali foydalanish ko`rsatkichlariga asoslangan holda tahlil natijalariga ko`ra baho beriladi.

Xo`jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta`minlanishi va ulardan samarali foydalanishini o`rganishdagi tahlilning asosiy vazifalari:

- xo`jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanishini aniqlash va unga baho berish;
- asosiy vositalar tarkibi, tuzilishidagi o`zgarishlarni aniqlash;
- asosiy vositalar harakatini ifodalovchi ko`rsatkichlarni hisoblash va o`zgarish sabablarini aniqlash;
- asosiy vositalardan samarali foydalanish ko`rsatkichlariga omillar ta'sirini hisoblash;
- ishlab chiqarish asosiy fondlaridan samarali foydalanishni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Asosiy vositalardan foydalanish va ularning samaradorligiga baho berish moliyaviy tahlilning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining asosiy vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanganligini o`rganish bilan bir qatorda ularning samaradorlik ko`rsatkichlarini o`rganish asosiy o`rinda turadi. Chunki, asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlangan bo`lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanmasak, u holda korxonaning samaradorligi pasayib ketadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko`rsatkichlari korxonaga xo`jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko`rsatkichlaridan biri sifatida olinadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko`rsatkichlarini oshirishning quyidagi yo`nalishlarini korxonaga uchun tavsiya sifatida keltirib o`tish mumkin.

Tashkiliy yo`nalishlar bo`yicha:

- asosiy vositalarning faqat korxonaga ish beradigan qisminigina olish;
- asosiy vositalarning ortiqcha qismini ushlab turmaslik;
- eskirgan asosiy vositalarni va manaviy talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish;
- asosiy vositalarni farqlash va tarkiblashni qayta o`zgartirish;
- asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning muolliq shakllarini belgilash va h.k.

Texnik yunalishlar bo`yicha:

- asosiy vositalarni ta'mirlash choralarini ko`rish, texnik qarov;

- eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;
- avtomatlashtirilgan tizimni yaratish;
- mexanizasiyalashni kuchaytirish va h.k.;

Ekspluatasion yo`nalishlar bo`yicha:

- bir smenalik va ko`p smenalik;
- ishlab chiqarish hajmiga qarab asosiy vositalarni texnik holat va harakatini boshqarish;
- asosiy vositalar qarovi yuzasidan ma'sul shaxslarni ajratish;

asosiy vositalar bo`yicha javobgarlik markazlarini belgilash va boshqalar.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar o`z samarasini ko`rsatib kelmoqda. Chetdan kirib kelayotgan xorij tajribalari va yangiliklar jamiyatimizda sodir bo`layotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga o`z ta'sirini o`tkazmasdan qolmayapti.

Bitiruv makakaviy ishining natijalaridan quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin:

1. Korxonalarining moddiy-texnika ta`minotini modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar tahlilini yo`lga qo`yish hamma korxonalar faoliyatida unchalik yaxshi rivojlangan deb bo`lmaydi shunday ekan korxonalar faoliyatini yaxshilash va foyda olish uchun harakat qilar ekanmiz buning uchun korxonalaridagi har bir faoliyat turlarini tahlil qilishni yo`lga qo`yish kerak;
2. Korxonalarini texnik modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar tahlilining korxonalar faoliyatini tahlil qilishni yo`lga qo`ygandan so`ng Korxonaning har bir ko`rsatkichlarini ma`lum usullardan foydalangan holda tahlil qilishni kuchaytirish lozim;
3. Korxonalarining texnikaviy darajasini ko`tarishga xizmat qiladigan, qo`l kuchini osonlashtiradigan va ish unumini tezlashtiradigan bu asosiy vositalardir va ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.
4. Korxonalarining asosiy vositalarni tahlil qilishda ko`rsatkichlar, usullar orqali aniq va sodda qilib tekshirish va tahlil qilish lozim. Ayniqsa, sanoat korxonalari asosiy vositalarini baholashda bu ko`rsatkich muhim sanaladi.
5. Korxonalarda asosiy vositalarni baholash va tahlil qilishda eng ishonchli axborot manbasi bo`lib, moliyaviy hisobot ma`lumotlari hisoblanadi.
6. Korxonalarda mavjud bo`lgan asosiy vositalar bo`yicha yaroqlilik, yangilanishlarni aniqlash bilan bir qatorda ko`rsatkichlar asosida asosiy vositalar ta`mirlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.
7. Korxonaning asosiy vositalarini ifodalovchi ko`rsatkichlar tizimi asosida uning faoliyatini tahlil qilib, tahlil natijalarida foydalanishni yo`lga qo`yish, ya`ni erishilgan

natijalar asosida imkon qadar yuqori foyda olish maqsadida chora-tadbirlar belgilash lozim:

- korxonada marketing tadqiqotlarini samarali yo`lga qo`yish talab etiladi. Maxsulotlarni sotishda bozorlarni tanlash, ularning sig`imini aniqlash, raqobatchilar to`g`risida to`liq axborotlarga ega bo`lish keyingi istiqbollarni belgilab beradi;
- korxonada yetuk mutaxassis kadrlar mavjud, lekin ularni qayta o`qitish tizimi samarali yo`lga qo`yish lozim. Kadrlar malakasini oshirish bu davr talabidir;
- hozirda vino va aroq uchun mo`ljallangan shisha idishlar chetdan olib kelinadi. Agarda xorijiy investitsiyalar jalb qilinib zamonaviy texnikalar asosida bu boradagi yangi loyixalar amalga oshirilsa korxonada yanada rivojlangan bo`lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: “O`zbekiston”, 2010
2. O`zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. – T.: NORMA, 2011. – 511 b.
3. O`zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. / O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. – T.: Adolat, 2000. - 687 b.
4. «Buxgalteriya hisobi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1996 yil 30 avgust.
5. «Auditorlik faoliyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri). 2000 yil 26 may.
6. «Axborotlashtirish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. 2003 y. 11 dekabr.
7. “Bankrotlik to`g`risida” (yangi tahrirda) (O`zR 24.04.2003 y. 474-II- son Qonuni bilan tasdiqlangan) (Mazkur Qonunga O`zR 20.12.2005 y. O`RQ-15-son Qonuniga muvofiq o`zgartirishlar kiritilgan).
8. O`zbekiston Respublikasining “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag`batlantirish to`g`risida”gi (1995 yil 21 dekabr) qonuni.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti 2003 yil 30 avgustda "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o`rta biznesni rivojlantirishni yanada rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi Farmoni (1998 yil 9 apreldagi Farmonga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish haqida)
10. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi “O`zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to`g`risida”gi PQ- 1675-son qarori
11. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi (O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruza), “Xalq so`zi”, 2010 yil 13 noyabr (№ 220).
12. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom

Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2012 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 noyabr PQ-1856-son "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida" gi Qarori.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli "2011 – 2015 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.
- 16.Karimov I.A. "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini Yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi". Xalq so'zi, №14 (5434). 2012 yil 20 yanvar.
- 17.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

- bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi, 2014 yil 18 yanvar.
19. O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to`g`risidagi yo`riqnomani tasdiqlash to`g`risida"gi 502-sonli buyrug`i. 2011 yil.
 20. Abdullaev Y. va boshq. Iqtisodiy tahlil.-T.: Mehnat. 2001.-452 b.
 21. Abdullaev A. va boshq. Kichik biznesni boshqarish.-T.: Moliya. 2003.-192 b.
 22. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili.-T.: Moliya. 2003.
 23. Axmadjonov X.I., Raximov M.YU. Moliyaviy tahlil. T.; TMI bosmaxonasi. 2004 y.
 24. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Xaydarov M.T.,Ashurova D.S.
 25. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni prognozlashtirish. O`quv qo`llanma T.: «Fan va texnologiya» 2006. -248 b.
 26. Бужинский А., Шеремет А. Д. Методика анализа хозяйственной деятельности производственного предприятия (обединения).- М.: Финансы и статистика. 1995.
 27. Бирман Г., Шмидт С. Экономический анализ инвестиционных проектов. - М.: Банки и биржи, ЙУНИТИ, 1997. - с.208
 28. Вакуленко Л.Ф. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности для принятия управленческих решений-СПб:изд.торг.дом. «Герда», 1999.-160 с.
 29. Vahobov. A.V., Ibrohimov A.T.,Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik.-T.: SHarq. 2005.- 480 b.
 30. Друри К. Введение в управленческий и производственный учет.- М.: Аудит, ЙУНИТИ. 2003.-556 с.
 31. Жигалов Н. В. Использование финансовых коэффициентов для оценки деятельности компании. - М.: МГИМО. 1993.
 32. Jo`raev A.S. va boshq. Investisiya loyihalari tahlili: O`quv qo`llanma.- T.: Sharq. 2003.-256 b.

33. Ibragimov A. Moliyaviy tahlil. - T.: Mehnat. 1995.-59 b.
34. Ibragimov A.T., Raximov M.YU. Boshqaruv tahlili. T.; TMI bosmaxonasi. 2004 y.
35. Ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish» O`quv qo`llanma T.: TDIU 2004 yil.
36. Козлова е. П., Парашутин Н. В. Анализ финансового состояния и прогнозирования банкротства. М.: СП. Аудит - Ажур. 1994. - 162 с.
37. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi.-T.: Sharq. 2004.-592 b.
38. Ковалев О.В., Константинов Ю.П. Аудит. Учебное пособие. - М. Изд- Приор, 2000. - 272 с.
39. Pardaev A.X. Boshqaruv hisobi.-T.: «Akademiya». 2002.-176 b.
40. Pardaev M.Q. Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. 1-2 qism.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2001.-256 b.
41. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik.-Sam.: Zarafshon 2001.
42. Pardaev M. Q., Isroilov B. I. Moliyaviy tahlil (Uslubiy ko`rgazmalar va tavsiyalar albomi) - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999 y.
43. Pardaev M.Q., Shoalimov A.X., Pardaev I.R., Isroilov J.I. Boshqaruv tahlili. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. - 69 b.
44. Sotivoldiev A.S., Itkin YU.M. Zamonaviy buxgalteriya hisobi.- T.: O`zbekiston BAMA nashr. 1-P-tom. 2002.-122 b.
45. Селезнева И.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ: Учебное пособие.- :ИУНИТИ-ДАНА, 2001.-479 с.
46. G`ozibekov D.G`. Investision loyihalarni moliyalashtirish.- T.:«Moliya». 2003 y.
47. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot.(Monografiya)-T.: Moliya. 2003.-247 b.
48. Hakimov B., Xo`jaxonov X., «Budjet tashkilotlarida iqtisodiy tahlil» – T.: «Iqtisod-Moliya», 2011. -352 b.

49. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish.-T.: O`qituvchi. 2004.-100 b.
50. Шагиясов Т.Ш. и другие. Финансовый и управленческий анализ. /Учебник. –Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЙА, 2008. -352 с.
51. Shog`iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. –Т.: IQTISODMOLIYA, 2009. - 220 b.
52. A.V.Vahobov Sh.X.Hajibakiev, N.G.Muminov “Xorijiy investitsiyalar”. O`quv qo`llanma.-T. Moliya.2010
53. J.X.Ataniyozov, E.D.Alimardonov. Darslik.-T. O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T. 2014.
54. <http://www.Gov.uz/>
55. <http://www.Pravo.uz/>
56. <http://www.Zionet.uz/>
57. <http://www.Stat.uz/>
58. <http://www.audit-it.ru/>
59. <http://www.analitic.ru/>
60. <http://www.urganchsharob.uz/>